

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**HISOB VA AUDIT FAKULTETI**

**“BUXGALTERIYA HISOBI ” KAFEDRASI**

**ISLOM ISMOIL ALISHER O‘G‘LI**

**“MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN MODDIY  
XARAJATLAR HISOBI VA AUDITI”**

**5340900 -“buxgalteriya hisobi va audit” ta‘lim yo‘nalishi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”**

**«Buxgalteriya hisobi» kafedrası  
mudiri**

\_\_\_\_\_ i.f.n., dots. B.O.Bolibekov

« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2014 y.

**TOSHKENT – 2014**

## MUNDARIJA

<b>Kirish .....</b>	
<b>I. BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobi va auditining nazariy asoslari</b>	
1.1 Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobi va auditini tashkil etish hamda uning vazifalari.....	
1.2. Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me‘yoriy, xuquqiy va uslubiy asoslari.....	
<b>II. BOB. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot tannarxi kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobini tashkil etishning xozargi xolati</b>	
2.1. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni turkumlash	
2.2. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni xujjatlarda rasmiylashtirish.....	
2.3. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobini baholash va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari.....	
<b>III. BOB. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini o‘tkazishni tashkil etish</b>	
3.1. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini tashkil qilish va natijalarini umumlashtirish.....	
3.2. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini takomillashtirish.....	
<b>Xulosa.....</b>	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....</b>	



## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** Iqtisodi rivojlangan davlatlarning boshqarish usullari va shakllarining O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga tadbiiq etilishi barcha korxonalarga taalluqlidir. Bu jarayon, ayniqsa, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida muhim ahamiyat kasb etishi lozim. Bu haqda Prezident I.Karimov shunday deydi: «Bugungi keskin raqobat sharoitida mahsulotlarimizning jahon va mintaqaviy bozorlarda xaridorgir bo‘lishi va mustahkam o‘rin egallashi uchun bu boradagi ishlarni yana bir bor tanqidiy ko‘rib chiqish lozim. Bunda tashqi bozorda xaridorbop, yuqori likvidli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarini rag‘batlantirishni yanada kuchaytirish, ularga yangi imtiyoz va preferensiyalar berish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar tayyorlash zarur.

Mamlakatimizdagi raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini va boshqa tarmoqlarning eksport yarmarkalari o‘tkazishini kengaytirish, shuningdek, mahsulot sotishning zamonaviy usullaridan keng foydalanish, asosiy ishlab chiqaruvchilarimizni o‘z mahsulotlari taqdimotini o‘tkazish va yangi eksport shartnomalari tuzishi uchun nufuzli xalqaro yarmarkalarga jalb etish bo‘yicha alohida Hukumat qarorini qabul qilish lozim».<sup>1</sup>

Boshqaruv jarayoni xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini to‘g‘ri belgilash, istiqbol yo‘nalishlarini oqilona ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqarish jarayonining samaradorligini oshirishda va uni ishonchli axborotlar bilan ta‘minlashda buxgalteriya hisobi va audit alohida o‘rin tutadi.

Respublikamizning jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi va turli xalqaro tashkilotlarga a‘zo bo‘lishi buxgalteriya hisobi va auditni jahon talablari asosida

---

<sup>1</sup> Prezident Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda Uzbekistonni ijtimoiy-iktisodiy rivojlantirishning ustuvor yunalishlariga bagishlangan “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yo‘l bo‘ladi” nomli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasi. 2012 yil 19 yanvar. 11-12.b

yuritilishini taqozo qilmoqda. Turli mulkchilik shakllaridagi korxonalar erkin raqobat asosida samarali faoliyat ko'rsatib, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga o'zining munosib hissasini qo'shishi kerak. Bu esa korxonalarda mavjud ishlab chiqarish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanishni taqozo etadi hamda buxgalteriya hisobi va auditning oldiga yangicha vazifalarni qo'yadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarda buxgalteriya hisobini davr talabi asosida tashkil etish, mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash, ishlab chiqarish xarajatlari hisobini yanada takomillashtirish bugungi kunning muhim talablaridandir.

Bitiruv malakaviy ishida ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi, ularni buxgalteriya hisobida yuritish va tarmoqda mahsulot tannarxini aniqlashni takomillashtirish, mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar va mahsulot tannarxi auditini tashkil qilishning buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari talablariga mos keladigan usullarini hamda tashkiliy tamoyillarini qo'llash masalalariga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, korxonalar faoliyatida xarajatlar hisobi va auditini tashkil etishning uslubiy asoslarini rivojlantirish bo'yicha ayrim taklif va mulohazalar berilgan.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi va vazifalari.** Ushbu bitiruv malakaviy ishining maqsadi - mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni hisobga olish va ular auditiga tegishli adabiyotlar va hozirgi amaliyot asosida mavzuni to'la o'rganib chiqib, kamchiliklarini yoritib tegishli xulosa va takliflarni kiritish hamda bizning hisob usullarimizni xorijiy usullar bilan qiyosiy tahlil qilib chiqish.

Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, ishni bajarishda quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy xarajatlar hisobi va auditini o'rganish, amaliyotda qo'llanilishini o'rganish asosida ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

- korxonalarda moddiy xarajatlar hisobini yuritish darajasini o'rganib chiqish va bu borada mavjud kamchiliklar bo'yicha takliflar kiritish;
- aloxida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo'linmalari bo'yicha xarajatlar xisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta'minlash;
- aloxida maxsulot turlari bo'yicha asosiy ishlab chiqarish xarajatlari xaqidagi ma'lumotni shakllantirib berish;
- korxonalarda moddiy xarajatlar hisobini yuritishni o'ziga xosligini o'rganish va bu borada ishlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;
- moddiy xarajatlar auditini tashkil qilish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar berish.

**Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy tuzilish.** Bitiruv malakaviy ishikirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tarkibi uning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarni aks ettiradi.

## **I. BOB. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobi va auditining nazariy asoslari**

### **1.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobi va auditini tashkil etish hamda uning vazifalari**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy vazifasi o‘zgaradi, chunki u uzoq vaqtlar mobaynida davlat mulkini nazorat qilishning markazlashgan usuli bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, endi uning o‘rni va maqsadi o‘zgardi. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining rivojlanib borishi natijasida turli mulkchilik shakllarining paydo bo‘lishi, korxonalar faoliyatining holati va moliyaviy natijalar to‘g‘risida iqtisodiy ma’lumotlarni jamlash va bu ma’lumotlar bilan yuqori tashkilotni ta’minlash jarayonida qator muammolar kelib chiqdi. Bunday muammolarga quyidagilarni sanab o‘tish mumkin:

- Bozor iqtisodiyotni sharoitida korxonalarda hujjatlar aylanishining to‘liq jadvali mavjud emasligi va hisob siyosatining ishlab chiqilmaganligi;

- hisob jarayonlarining murakkabligi va chalkashligi (ayrim xo‘jalik muomalalarining takrorlanishi, analitik hisob yuritishda ortiqcha oraliq axborotlarning mavjudligi), hisob yuritishda tarmoq uchun rasmiy, uslubiy ko‘rsatmalarning etarli emasligi;

- buxgalteriya hisobining holatini va sifatini baholash mezonlarining mavjud emasligi;

- buxgalteriya hisobi axborotlari oqimini hisobot davrida notekis taqsimlanishi va ayrim hisob-kitob xodimlari o‘rtasida ularni qayta ishlash vazifasi to‘g‘ri taqsimlanmaganligidir.

Bozor munosabatlari sharoitida hisob axborotlarini qayta ishlash, tezkor, haqqoniy, oddiy hamda har bir xodimga tushunarli shakl va usullarda yuksak sifatli qilib ta’minlashdan iborat.

Buxgalteriya hisobi tizimini shakllantirishga yondashuv uchta muhim va chambarchas bog'liq vazifani - buxgalteriya hisobining maqsadi va funksiyalari, uning uslubiy asoslari va tashkil etish muammolarini tarmoq va milliy darajada hal etish bilan belgilanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda olimlarning ko'pchiligi buxgalteriya hisobi korxonalar boshqaruv tizimini kerakli axborotlar bilan to'liq ta'minlay olmayotganligini tan olmoqda.

Respublikamizda hisob siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish buxgalteriya hisobining qoidalariga, uslublariga asoslanadi. Amaliyotda buxgalteriya hisobi har xil usullar bilan amalga oshirilishi mumkin. Shuning uchun har bir korxonada qonuniy va me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobi usullaridan o'z faoliyati uchun iqtisodiy jihatdan eng samaralisini tanlab olish huquqiga ega. Amaldagi qonunlarda va me'yoriy hujjatlarda baholash, kalkulyatsiya, yangi hisobvarao'lar rejasini qo'llash, hisob andozalari va hujjatlar majmuasi, xarajatlar hisobini yuritish variantlarini tanlash va boshqa masalalar bo'yicha korxonalariga etarlicha erkinliklar berilgan.

Bizning fikrimizcha, korxonaning hisob siyosati avval mutaxassislar, ma'muriyat va ta'sischi o'rtasida muhokama qilinib, so'ng tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishi zarur. Uning zarurati shu bilan belgilanadiki, hisob nafaqat korxonada buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil qilishga, balki korxonaning moliyaviy faoliyatiga, mablag'lardan oqilona foydalanish, boshqaruv qarorlarini korxonada foydasiga tezkor qabul qilish va boshqalarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda oldindan jamoa tomonidan hisob siyosatining uslubiy, texnik va tashkiliy tomonlari muhokama qilinishi korxonada hisob siyosati qoidalarini va tamoyillarini to'g'ri qo'llanish imkoniyatini beradi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlarini etkazishning tezkorligini ta'minlash ishlab chiqarish jarayonini boshqarishning asosiy talablaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Boshlang'ich hujjatlarda ko'pgina ko'rsatkichlar takrorlanadi va ular to'lg'azilmasdan qoladi. Bizning fikrimizcha, tarmoq korxonalari faoliyati



uchun ularning takomillashgan shakllarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish zarurdir.

Boshqaruv hisobiga yangicha yondoshish va uni takomillashtirishga intilish mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va hisobga olishning yangi usullari paydo bo'lishi hamda rivojlanishiga olib keldi. Bu xarajatlar hisobining ma'suliyat markazlari bo'yicha, «Direkt-kosting» va «Standart-kosting» tizimlari asosida tashkil etilishidir.

Hozirgi paytda «Direkt-kosting», «Standart-kosting» va boshqa ilg'or usullar tizimlaridan tashqari xarajatlar hisobi va nazorati ma'suliyat markazlari bo'yicha hisobni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Ma'lum vaqt o'tgach bu tizimning nuqsonlari mavjud bo'lib, bu aniq ijrochining yo'qligi bilan bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Jisqa muddat ichida u yoki bu ma'muriyatchilarning ishini baholashda rejadan chetga chiqish hollarini kuzatib borish g'oyasi tug'ildi. Bu esa J.A.Xiggins tomonidan ma'suliyat markazlari kontseptsiyasini shakllantirishga, ya'ni moliya-xo'jalik faoliyati natijalari uchun alohida shaxslarning ma'suliyat darajasini belgilash g'oyasiga olib keldi. Boshqaruv hisobining yangi usullarini joriy qilish «Direkt-kosting» tizimini boyitib, uning rivojlanishini yangi bosqichga ko'tardi va uning tezkor ravishda ma'lumot berish darajasini oshirdi. Bu esa, o'z navbatida, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o'ta muhim edi. Bu uning sanoat korxonalari amaliyotiga tez singib ketib, ishlab chiqarishni boshqarishda eng muhim tizimlardan biriga aylanishiga zamin yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodchi-olimlari tomonidan ham boshqaruv hisobi to'g'risida fikr bildirilib, iqtisodchi-olim prof. A.X.Pardaev tomonidan shunday deyilgan: «Boshqaruv hisobi-korxonalar faoliyatini boshqarish jarayoni uchun zarur iqtisodiy axborotlarni etkazib berish bilan shug'ullanadi va ishlab chiqarish hajmining optimalligini belgilash imkonini beradi»<sup>3</sup>. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatimizda va

---

<sup>3</sup> A.X.Pardaev. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. -T.: 2008 yil.

xorijda chop etilgan iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish boshqaruv hisobi to'g'risidagi fikrlarda yakdillik yo'qligini ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobi asosan korxonada boshqaruv xodimlarini tezkor axborot bilan ta'minlashi zarur. Bu bevosita mahsulot tannarxi va uni tashkil qilish hisobidir.

Boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri o'z vaqtida hamda korxonaning ayrim bo'linmalari bo'yicha xarajatlar va olingan daromadlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni boshqaruv apparatiga etkazib berishdir. Boshqaruv hisobi ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun ketgan xarajatlarni to'g'ri hisobga olish va mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash imkoniyatini beradi. Shu sababli tannarx hisobi yoki ishlab chiqarish hisobini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu tartibda buxgalteriya hisobini yuritish xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga javob beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobining asosiy vazifalari ham o'zgaradi va ushbu tizimga mos holda tashkil qilinadi. Chunki buxgalteriya hisobining turli tizimlarda bajaradigan vazifasi ham o'zgaradi. Masalan, bozor iqtisodiyotiga o'tish natijasida turli xil noaniqliklar va tavakkalchiliklar paydo bo'ladi: mol etkazib beruvchi o'z vaqtida tovar etkazib bermasligi, xaridor o'z vaqtida olingan mahsulot uchun pul to'lamasligi, bahoning o'zgarishi va hokazolar. Bundan tashqari bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi buxgalteriya hisobi ob'ektlari paydo bo'ladi. Korxonada tomonidan ushbu ob'ektlarni hisobga olish, korxonada boshqaruvchilari uchun va «tashqi» ma'lumot iste'molchilar uchun zarur va kerakli ma'lumotlarni etkazib berish buxgalteriya hisobining vazifasiga kiradi.

Boshqaruv hisobi korxonada faoliyatini yaxshilash, ish natijalariga to'g'ri baho berish uchun xizmat qiladi. Bu jaryonda xarajatlar, jumladan moddiy xarajatlar muhim o'rin tutadi. Shuning uchun xarajatlarni hisobga olish va kalkulyatsiya qilish korxonada moddiy resurslari va boshqa xarajatlari ustidan qanday nazorat o'rnatishga yordam beradi.

Korxonaning ishlab chiqarish xarajatlari deb, mahsulotni ishlab va realizatsiya qilish bilan bog‘liq xarajatlarga yoki davr xarajatlariga aytiladi. Ularga xom-ashyo, material, yoqilg‘i, amortizatsiya ajratmasi, ishchi - xizmatchilarga ish haqi va mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq boshqa xarajatlar kiradi.

Agar bir xil mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning jami summasini ishlab chiqarilgan mahsulot soniga taqsimlasak, ishlab chiqarilgan bir birlik mahsulotning tannarxini topamiz. Tannarx ko‘rsatkichi korxonada faoliyatida muhim sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. U qancha past bo‘lsa, ishlab chiqarish rentabelligi shuncha yuqori bo‘ladi. Tannarxga korxonaning hamma xarajatlari qo‘shilmaydi, ba’zi xarajatlari boshqa manbalar hisobidan qoplanadi. Masalan, foyda hisobidan davr xarajatlari qoplanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari xarajat kalkulyatsiya moddalarini bo‘yicha ishlab chiqarish turlari, xarajatlarning vujudga kelish joylari, mahsulot turlari bo‘yicha buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Xarajatlarni hisobga olish hamda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishdan asosiy maqsad ishlab chiqarish va sotish bilan bog‘liq xarajatlarni o‘z vaqtida, to‘laligicha va haqqoniy aniqlashdir va shu bilan birga ayrim mahsulotlarning haqiqiy tannarxini hisoblash hamda korxonada resurslari va pul mablag‘lari ishlatilishi ustidan nazoratni o‘rnatishdir.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda buxgalteriya hisobi islohoti amalga oshirilishi eng asosiy masalalar bo‘yicha o‘zgarishlar bo‘lishiga olib keldi. Avval 1995 yilda keyinchalik 1999 yilda «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomning qabul qilinishi mamlakatimiz buxgalteriya hisobida tubdan o‘zgarishlar bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Ushbu Nizom xarajatlarning mohiyati, korxonaning hisobot davridagi foydasi bilan bog‘liqligidan kelib chiqib taqsimlashni belgilab berdi. Bunday taqsimlash bozor iqtisodiyoti xususiyatlaridan kelib chiqadi va u bizning buxgalteriya

hisobi tizimimizni xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan «Direkt-kosting» hisob tizimiga ancha yaqinlashtirdi. Xarajatlar hisobining aynan shu tizimga yaqinlashtirilishi bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobi bajarishi kerak bo'lgan vazifalardan kelib chiqdi.

Korxonada va uni boshqarish nuqtai nazaridan esa xarajatlarning umumiy summasi, alohida ishlab chiqarish bo'linmalarining unumli hamda unumsiz xarajatlari va boshqalar haqidagi axborotlarni yig'ishni talab etadi.

Shunday qilib, xarajatlarni hisobga olish ham moliyaviy hisobning, ham boshqaruv hisobining eng muhim qismlaridan biri ekan. Mana shu asosda xarajatlar hisobi oldidagi vazifalarni aniqlash mumkin.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni korxonada faoliyatining moliyaviy natijalari, uning moliyaviy holati, xususan, mulkiy holati hamda to'lov qobiliyati haqidagi axborot bilan ta'minlashdir. Demak, bu jihatdan, xarajatlar hisobi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- korxonada faoliyati bilan bog'liq barcha moddiy xarajatlarni o'z vaqtida to'raligicha hisobga olish;
- moddiy xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni alohida hisobvaraqlarida hamda hisobot shakllarida to'g'ri aks ettirish.

Bu vazifalarni bajarish uchun xarajatlarni moliyaviy hisob tamoyillari, xususan, ikki yoqlama yozuv asosida hisobga olish etarlidir. Boshqaruv hisobining eng asosiy xususiyati esa uning ma'lumotlari boshqaruv uchun foydaliligidir. Jumladan, boshqaruv hisobi xarajatlar haqida shunday batafsil ma'lumotlarni berishi kerakki, toki uning asosida eng to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilishning imkoniyati paydo bo'lsin. Bu sohada xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda moddiy xarajatlar hisobi haqidagi ma'lumotlarni korxonada quyidagi holatda shakllantirishi kerak:

- moddiy xarajatlarni ularni paydo bo'lish joylari bo'yicha hisobga olish;

- moddiy xarajatlar hisobini javobgar xo‘jalik markazlari bo‘yicha tashkil qilish;

- moddiy xarajatlarni ularni paydo qilgan ob‘ektlari yoki ularni tashuvchilari, ya’ni alohida mahsulot turlari bo‘yicha jamlab berish.

Bu vazifalar boshqaruv hisobini asosiy vazifasini bajarishga imkon beradi. Masalan, moddiy xarajatlarni ularning paydo bo‘lish joylari va javobgar xo‘jalik markazlari bo‘yicha hisobga olish eng muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishga imkon yaratadi.

Demak, moddiy xarajatlarni hisobga olishning quyidagi vazifalarini ham sanab o‘tishimiz kerak ekan:

- alohida ishlab chiqarish jarayonlari yoki bo‘linmalari bo‘yicha moddiy xarajatlar hisobini tashkil qilish va ular ustidan nazoratni ta’minlash;

- alohida mahsulot turlari bo‘yicha asosiy ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari haqidagi ma’lumotni shakllantirib berish.

Har bir korxonada yoki birlashmada ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini to‘g‘ri kalkulyatsiya qilishni tashkil etish imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

- avvaldan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologiya rejasining mavjud bo‘lishi;

- ombor xo‘jaligining to‘g‘ri tashkil qilinishi va ishlab chiqarish zarur o‘lchov asboblari va moslamalar bilan ta’minlangan bo‘lishi;

- ishlab chiqarish xarajatini analitik hisobvarag‘i;

- kalkulyatsiya ob‘ektlari hamda kalkulyatsiya birligini aniqlash;

- kalkulyatsiya moddalari, kompleks xarajatlar moddalari nomenklaturasini ishlab chiqish;

- kompleks xarajat moddalarini kalkulyatsiya ob‘ektlari o‘rtasida taqsimlash usulini tanlash va hokazolar.

Boshqacha qilib aytganda, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannaxxini kalkulyatsiyalashda quyidagi qoidalar asos bo'lib xizmat qiladi:

- korxonadagi barcha xarajatlarni ularning ahamiyatidan, ya'ni unumli yoki hokazolardan qat'iy nazar to'laligicha hisobga olish shart;
- xarajatlarni korxonadagi faoliyat sohalari bo'yicha alohida hisobga olish zarurdir. Aniqrog'i, asosiy faoliyat, boshqa turdagi faoliyat, masalan, ta'mirlash yordamchi xo'jalik, asosiy va yordamchi xo'jalik, asosiy va yordamchi sanoat ishlab chiqarish bo'limlari va hokazo;
- har bir xarajatni u tegishli bo'lgan davrda hisobga olish va qoplash shartdir.

Yuqoridagi qoidalarga bo'ysunish xarajatlar hisobining optimal tashkil qilinishi, moliyaviy hisobotning esa ob'ektiv va ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

## **1.2 Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy, xuquqiy va uslubiy asoslari**

Jaxon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoiti salbiy oqibatlarini korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga ta'sirini kamaytirish chetlab o'tish bo'yicha mamlakatimiz rahbari I.Karimov tomonidan belgilab berilgan vazifalar asosida respublikamiz iqtisodiyotida qator islohotlar amalga oshirilmokda. Korxonalar faoliyatida ishlab chiqarish hisobini tashkil etish bo'yicha barcha me'yoriy xuquqiy asoslar shakllantirilgan bo'lib ular bo'yicha qonunlar, qarorlar, yo'riqnomalar, milliy standartlar va boshqa qonuniy xujjatlar qabul qilingan. Korxonalar xo'jalik faoliyatida ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslarini tizimlashtirilgan holda aks ettirish mumkin.

Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me'yoriy xuquqiy asoslari negizini 1996 yil 30 avgustida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" gi qonuni tashkil etadi. Ushbu qonun talablari bo'yicha hisob ob'ektlaridan biri bo'lgan ishlab chiqarish hisobini tashkil etish

uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 sonli qarori bilan tasdiqlangan “Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida” gi Nizom qabul qilingan.

## 1-jadval

### Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishning me‘yoriy xuquqiy asoslari tizimi<sup>3</sup>.

Pog‘ona darajasi	Ko‘rsatkichlar nomi
1-pog‘ona	Ishlab chiqarish hisobini bevosita va bilvosita tashkil etishni tartibga soluvchi qonunlar va qonuniy xujjatlar (Uzbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari,)
2-pog‘ona	Ishlab chiqarish hisobini tashkil etishini bazaviy tamoyillarini umumlashtiruvchi me‘yoriy xujjatlar (yo‘riqnomalar, nizomlar, buxgalteriya xisobi milliy standartlari va boshkalar)
3-pog‘ona	Korxonalarda ishlab chiqarish ob’ektlari xisobini yuritish mexanizmi, xususiyatlarini aks ettiruvchi ishlab chiqarish xisobini tashkiliy, texnik va uslubiy jixatlarini mujassamlashtirgan hisob siyosati

Mazkur Nizomga muvofiq barcha xarajatlar quyidagilarga guruhlanadi:

- mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:


a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish hususiyatlariga ega bo‘lgan ustama xarajatlar;

<sup>3</sup> A.X.Pardaev. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2008 yil.

Bu Nizomga asoslangan holda barcha xarajat moddalarini quyidagicha ifodalash mumkin.



### 1-chizma. Xarajatlarni guruxlanishining sxematik ko‘rinishi<sup>3</sup>.

- ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan, biroq asosiy faoliyatdan olingan foydada hisobga olinadigan hamda davr xarajatlari kiritiladigan xarajatlar:

- a) sotish xarajatlari;
- b) boshqarish xarajatlari (ma'muriy sarf-xarajatlar);
- v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlari;

- xo‘jalik yurituvchi sub’ektning umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadigan xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliyaviy faoliyati bo‘yicha xarajatlari:

- a) foizlar bo‘yicha xarajatlar;
- b) xorijiy valyuta bilan operatsiya bo‘yicha salbiy kurs tafovutlari;

<sup>3</sup> A.X.Pardaev. Boshqaruv hisobi. O‘quv qo‘llanma. -T.: 2008 yil.



- v) qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash;
- g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar.

Favqulodda zararlar, u foydadan olinadigan soliq to'langunga qadar foyda yoki zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan, ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi (Chizma 1.2.3):

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Nizomga muvofik ishlab chiqarish bilan bog'liq moddiy xarajatlarga quyidagilar tegishli bo'ladi<sup>2</sup>:

- Ishlab chiqariladigan mahsulotning asosini tashkil etib, uning tarkibiga kiradigan yoki mahsulot tayyorlashda (ishlarni bajarishda, xizmatlar ko'rsatishda) zarur tarkibiy qism hisoblangan chetdan sotib olinadigan xom ashyo va materiallar.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 sonli karori bilan tasdiklangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi xamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi tugrisida" gi Nizom

- Normal texnologiya jarayonini ta'minlash va mahsulotlarni o'rash uchun mahsulot (ishlar, xizmatlar) yoki boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlariga sarflanadigan (asbob-uskunalar, binolar, inshootlar va boshqa asosiy vositalar sinovini o'tkazish, nazorat qilish, saqlash, tuzatish va ulardan foydalanish) uchun ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan xarid qilinadigan materiallar, shuningdek asbob-uskunalarni tuzatish uchun ehtiyot qismlar, inventarlarning, xo'jalik buyumlarining va asosiy vositalarga kirmaydigan boshqa mehnat vositalarining qiymati.

- Sotib olinadigan, kelgusida ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektda montaj qilinadigan yoki qo'shimcha ishlov beriladigan butlovchi buyumlar va yarim tayyor mahsulotlar.

- Tashqi yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki tarkibiy bo'linmalari tomonidan bajariladigan faoliyatning asosiy turiga tegishli bo'lmagan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ishlar va xizmatlar.

Ishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan ishlar va xizmatlarga mahsulot tayyorlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni bajarish, xom ashyo va materiallarga ishlov berish, iste'mol qilinayotgan ashyo va materiallar sifatini aniqlash uchun sinovlar o'tkazish, belgilangan texnologik jarayonlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, asosiy ishlab chiqarish fondlarini tuzatish va boshqalar tegishli bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida tashqi yuridik shaxslarning transport xizmatlari (xom ashyo, materiallar, instrumentlar, detallar, tanavorlar, yuklarning boshqa turlarini bazis (markaziy) ombordan tsexga keltirish va tayyor mahsulotni saqlash uchun omborga keltirish) ham ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo'lgan xizmatlarga tegishli bo'ladi.

- Tabiiy xom ashyo (er rekultivatsiyasiga ajratmalar, ixtisoslashtirilgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan erni rekultivatsiya qilish ishlariga haq to'lash), ildizi bilan beriladigan daraxtga haq

to'lash, korxonalar tomonidan suv xo'jaligi tizimlaridan beriladigan iste'mol qilinadigan suv uchun haq to'lash. Sanoatning xom ashyo tarmoqlari uchun yog'och, taxta materallaridan yoki foydali qazilmalardan (rudadan) foydalanishga huquqlarning amortizatsiya qilinadigan qiymati yoki atrof muhitni tiklash xarajatlari.

- Texnologik maqsadlarga, energiyaning barcha turlarini ishlab chiqarishga, binolarni isitishga sarflanadigan yonilg'ining chetdan sotib olinadigan barcha turlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning transporti tomonidan bajariladigan ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha transport ishlari.

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning texnologik transport va boshqa ishlab chiqarish va xo'jalik ehtiyojlariga sarflanadigan barcha turdagi xarid qilinadigan energiya. (Xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan elektr energiyasiga va energiyaning boshqa turlariga, shuningdek, xarid qilinadigan energiyani iste'mol joyigacha transformatsiya qilish va uzatish xarajatlari xarajatlarning tegishli elementlariga kiritiladi).

- Ishlab chiqarish sohasida moddiy boyliklarning yaroqsizlanishi va kam chiqishi.

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektning transporti va xodimlari tomonidan moddiy resurslarni etkazish bilan bog'liq xarajatlar (yuklash va tushirish ishlari ham shu jumlagacha kiradi) ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlariga kirishi kerak (mehnatga haq to'lash xarajatlari, asosiy fondlar amortizatsiyasi, moddiy xarajatlar va boshqalar).

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan moddiy resurslarni etkazib beruvchilardan olinadigan idishlar ham moddiy resurslar qiymatiga kiritiladi.

- Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy resurslar xarajatlaridan qaytariladigan chiqitlar qiymati va idish va o'rash-joylash materiallari qiymati ularning amalda sotilishi, foydalanilishi yoki omborga kirim qilinishi narxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

- "Moddiy xarajatlar" elementi bo'yicha aks ettiriladigan moddiy resurslar qiymati sotib olish narxidan, shu jumladan, barter bitishuvlarida, qo'shimcha narx (ustama)dan, ta'minot, tashqi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan vositachilik taqdirlashlaridan, tovar birjalari xizmatlari qiymatidan, shu jumladan, brokerlik xizmatlaridan, bojlar va yig'implardan, soliqlardan (korxonaga keyinchalik qarz surishish, masalan, qo'shilgan qiymat solig'i tarzida qaytarib oladiganlardan tashqari), transportda tashishga haq to'lashdan, tashqi yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan saqlash va etkazib berishga haq to'lashdan kelib chiqib shakllanadi.

Nizomga muvofiq ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari tarkibiga quyidagi moddalar kiritiladi:

- Xo'jalik yurituvchi sub'ektda qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakllari va tizimlariga muvofiq bajarilgan narxnomalar, tarif stavkalari va lavozim maoshlaridan kelib chiqib hisoblangan amalda bajarilgan ish uchun ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo'lgan hisoblangan ish haqi, shu jumladan, xo'jalik yurituvchi sub'ektni mukofotlash to'g'risidagi nizomlarda nazarda tutilgan rag'batlantiruvchi tUSDagi to'lovlar.

- Kasb mahorati va murabbiylik uchun tarif stavkalariga va okladlarga ustamalar.

- Ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan kompensatsiya tUSDagi to'lovlar, shu jumladan:

- Texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtda, ishdan tashqari vaqtda, dam olish va bayram(ishlanmaydigan) kunlarda ishlanganlik uchun tarif stavkalari va okladlarga ustamalar va qo'shimcha haq;

- Ko'p smenali rejimda ishlanganlik, kasblarni birga qo'shib olib borganlik va xizmat ko'rsatish zonalarini kengaytirganlik uchun ustamalar;

- Hukumat tomonidan tasdiqlangan kasblar va ishlar ro'yxati bo'yicha og'ir, zararli, alohida zararli mehnat va tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlanganlik

uchun ustamalar, shu jumladan, ushbu sharoitlardagi uzluksiz ish staji uchun ustamalar;

- Aloqa, temir yo‘l, daryo, avtomobil transporti va katta yo‘llar xodimlarining va doimiy ishi yo‘lda o‘tadigan yoki qatnov tusiga ega bo‘lgan boshqa xodimlarning ish haqiga, xo‘jalik yurituvchi sub’ekt joylashgan joydan jo‘nagan paytidan boshlab shu joyga qaytib kelgan paytgacha to‘lanadigan yo‘lda o‘tgan har bir sutka uchun to‘lanadigan ustamalar;

- Qurilishda, rekonstruktsiya qilishda va mukammal ta‘mirlashda bevosita band bo‘lgan, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda vaxta usuli bilan ishlarni bajarishgan xodimlar uchun ishning ko‘chma va qatnov xususiyati uchun ustama;

- Doimiy ravishda er osti ishlarida band bo‘lgan xodimlarga ularning shaxtada (konda) ish joyiga jo‘nab ketishlaridan va orqaga qaytishlarigacha o‘tadigan normativ vaqt uchun qo‘shimcha haq;

- Mehnatga haq to‘lashning rayonlar bo‘yicha tartibga solinishiga, shu jumladan, rayon koeffitsientlari va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq cho‘l, suvsiz va yuqori tog‘ joylarida ishlaganlik uchun koeffitsientlar bilan belgilangan to‘lovlar;

- Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt joylashgan joydan (yig‘ilish punktidan) ish joyiga va orqaga qaytadigan yo‘lda o‘tadigan kunlar uchun vaxtada ishlash jadvalida nazarda tutilgan, shuningdek, xodimlarning meteorologiya sharoitlariga ko‘ra va transport tashkilotlarining aybi bilan yo‘lda tutilib qolingun kunlar uchun tarif stavkasi, oklad miqdorida to‘lanadigan summalar (vaxta usulida ishni bajarishda).

- Ish vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqti jamlanib hisoblanganda va qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ularga ish vaqtining normal davom etishidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish (ortiqcha ishlangan ish vaqti uchun dam olish) kunlari uchun haq to‘lash.

- Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash:

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq navbatdagi (har yilgi) va qo'shimcha ta'tillar, navbatdagi (har yilgi) foydalanilmagan va qo'shimcha ta'tillar uchun kompensatsiyalar, o'smirlarning imtiyozli soatlari, bolani ovqatlantirish uchun onalar ishidagi tanaffuslar, shuningdek, tibbiy ko'riklardan o'tish bilan bog'liq vaqt uchun haq to'lash.

Majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga, asosiy ish haqini qisman saqlab qolgan holda, haq to'lash.

Donor xodimlarga qonni tekshirish, topshirish kunlari uchun va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun haq to'lash.

Davlat vazifalarini bajarganlik uchun (harbiy yig'inlar, favqulodda vaziyatlar bo'yicha yig'inlar va boshqalar) mehnat haqi to'lash.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatida turmaydigan xodimlar mehnatiga ular tomonidan fuqarolik-huquqiy tuzilgan shartnomalar bo'yicha ishlar bajarilganligi uchun haq to'lash, agar bajarilgan ish uchun xodimlar bilan hisob-kitob xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zi tomonidan amalga oshirilsa pudrat shartnomasi ham shu jumlagi kiradi.

Belgilangan tartibga muvofiq ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi xodimlar mehnatiga haq to'lash fondiga kiritiladigan to'lovlarning boshqa turlari.

Nizomga muvofik ijtimoiy sug'urtaga ajratmalarga quyidagilar kiradi:

- Qonun hujjatlari bilan belgilangan normalar bo'yicha mehnatga haq to'lash fondiga ijtimoiy tuzilgan majburiy ajratmalar shu jumladan ish beruvchilarni majburiy sug'urtalash.

- Nodavlat pensiya jamg'armalariga va ixtiyoriy sug'urtaning boshqa turlariga ajratmalar.

Nizomga muvofik asosiy vositalar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi bo'yicha xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Asosiy ishlab chiqarish fondlarining dastlabki (tiklash) qiymatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya ajratmalari summasi (hisoblangan eskirish), lizing bo'yicha va belgilangan tartibda tasdiqlangan normalar, qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan jadallashtirilgan amortizatsiya ham shu jumlagi kiradi.

- Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar (Gudvill (firmaning narxi)dan tashqari) eskirishi har oyda xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan dastlabki qiymati va ulardan foydali foydalanish muddatidan (biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas) kelib chiqib hisoblanadigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga tegishli bo'ladi. Foydali foydalanish muddatini aniqlash imkoni bo'lmagan nomoddiy aktivlar bo'yicha eskirish normasi besh yil hisobiga belgilanadi, biroq xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati muddatidan ortiq emas.

Nizomga muvofik ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Ishlab chiqarish jarayoniga xizmat ko'rsatish xarajatlari.

Ishlab chiqarishni xom ashyo, materiallar, yonilg'i, energiya, instrument, moslamalar va boshqa mehnat vositalari va buyumlari bilan ta'minlash xarajatlari.

Asosiy ishlab chiqarish fondlarini ish holatida saqlash xarajatlari (texnik ko'rik va qarov, o'rtacha, joriy va mukammal tuzatish xarajatlari). Asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turda (joriy, o'rtacha, mukammal) tuzatishlarni xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'z kuchi bilan o'tkazish ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementlari (moddiy xarajatlar, mehnat haqi to'lash xarajatlari va boshqalar) bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi.

Zarurat bo'lganda, ayrim tarmoqlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining ruxsati bilan mukammal tuzatish ishlarini o'tkazish uchun mablag'lar zaxirasini tashkil qilishlari mumkin. Ushbu zaxiraga ajratmalar "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi va ko'zda tutilayotgan xarajatlar qiymati hamda asosiy vositalar har bir ob'ektini mukammal tuzatishlarning davriyligidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Zaxiraga ajratmalar normasi har bir hisobot yili oxirida qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda yangi moliya yili uchun ajratmalar miqdori ko'paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Agar mukammal tuzatishga zaxira mablag'lari summasi ushbu ob'ektni tuzatishga qilingan haqiqiy xarajatlar summasidan oshib ketsa, oshib ketgan summa bo'yicha tuzatish kiritilishi kerak, agar haqiqiy xarajatlar zaxiradagidan oshib ketsa, u holda oshib ketgan summa "Ishlab chiqarish tusidagi boshqa xarajatlar" elementi tarkibida aks ettiriladi.

Yong'indan saqlash va qo'riqlashni hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning texnikaviy foydalanish qoidalari bilan nazarda tutilgan boshqa maxsus talablarni ta'minlash, ular faoliyatini nazorat qilish xarajatlari.

Idoradan tashqari qo'riqlash xarajatlari bunday qo'riqlash mavjud bo'lishini talab qiluvchi mazkur ishlab chiqarishga maxsus talablar mavjud bo'lgan taqdirda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritilishi mumkin.

Ishlab chiqarish faoliyatiga tegishli bo'lgan asosiy vositalarni joriy ijaraga olish bilan bog'liq xarajatlar.

Tabiatni muhofaza qilish maqsadlaridagi fondlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari, shu jumladan atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi va chiqindilar joylashtirilganligi uchun kompensatsiya to'lovlari.

Ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan mehnatning normal sharoitlarini va texnika xavfsizligini ta'minlash xarajatlari.

Xodimlarning ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashishi bilan bog'liq bo'lgan sog'liqni muhofaza qilish tadbirlari.



Tekin ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar, oziq-ovqat, ayrim tarmoqlar xodimlariga oziq-ovqatlar qiymati, xo'jalik yurituvchi sub'ekt xodimlariga beriladigan tekin uy-joy haqini to'lash xarajatlari (yoki uy-joy, kommunal xizmatlar va boshqalar uchun pul kompensatsiyasi summasi).

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tekin beriladigan va shaxsiy foydalanishda qoladigan buyumlar qiymati (shu jumladan, formali kiyim-bosh, maxsus ovqatlar yoki ular pasaytirilgan narxlar bo'yicha sotilishi munosabati bilan imtiyozlar summasi);

Ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan boshqaruvning texnik vositalarini, aloqa uzellarini, signalizatsiya vositalarini, boshqaruvning boshqa texnik vositalarini, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlari;

Qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlarni tabiiy ko'rikdan o'tkazganlik uchun tibbiy muassasalarga haq to'lash.

- Ishlab chiqarish xodimlarini ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan xizmat safarlariga yuborish bo'yicha xarajatlar.

- Ishlab chiqarish xodimlarini va ishlab chiqarish aktivlarini majburiy va ixtiyoriy sug'urta qilish xarajatlari.

- Brak tufayli kelib chiqadigan yo'qotishlar.

- Ishlab chiqarishning ichki sabablariga ko'ra bekor turishlar tufayli yo'qotishlar.

- Kafolatli xizmat muddati belgilangan buyumlarni kafolatli tuzatish va ularga kafolatli xizmat ko'rsatish xarajatlari.

- Mahsulot (xizmatlar)ning majburiy sertifikatsiya qilish xarajatlari.

- Ishlab chiqarish jarohatlari tufayli mehnat qobiliyati yo'qolishi munosabati bilan tegishli vakolatli organlarning qarorlari asosida va qarorlarisiz to'lanadigan nafaqalar.

- Umumiy foydalaniladigan yo‘lovchilar transporti xizmat ko‘rsatmaydigan yo‘nalishlarda xodimlarni ish joyiga olib borish va olib kelish bilan bog‘liq xarajatlar.

- Ob‘ektlarni davlat kapital qo‘yilmalari hisobiga qurishda qurilish tavakkalchiliklarini sug‘urta qilish bilan bog‘liq xarajatlar.

- Gudvill (firma narxi)ning nomoddiy aktivi summasini hisobdan chiqarish bilan bog‘liq xarajatlar, ishlab chiqarish maqsadida bo‘lmagan mol-mulk yuzasidan belgilangan tartibda.

- Qazib oluvchi tarmoqlarda tayyorgarlik ishlari bo‘yicha xarajatlar, agar ular kapital xarajatlarga tegishli bo‘lmasa (ya‘ni asosiy vositalar sifatida kapitallashtirilmasa). Ushbu xarajatlar "Kelgusi davrlar xarajatlari" sifatida qaraladi va ularni qaytarishning belgilangan muddati mobaynida teng ravishda ishlab chiqarish tannarxiga yoki qazib olingan mahsulotning hajmi va miqdoriga mutanosib ravishda hisobdan chiqariladi. Kelgusi davrlar xarajatlarini hisobdan chiqarishning tanlangan metodi xo‘jalik yurituvchi sub‘ektning hisobga olish siyosatida aks ettirilishi kerak.

- Ishlab chiqarish jarayonida qatnashadigan xodimlarga vaqtincha mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik va tug‘ish nafaqalari to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibga muvofiq.

Nizomga muvofik mahsulot tannarxi va davr xarajatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha aks ettirish mumkin.

Bundan tashqari 4 - sonli “Tovar-moddiy zaxiralar” Buxgalteriya hisobi Milliy Standarti (O‘zR Moliya vazirining 15.06.2006 y.dagi 52-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zR AV tomonidan 17.07.2006 y.da 1595-son bilan ro‘yxatga olingan) da ham tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish hisobini tashkil etish bo‘yicha bazaviy tamoyillar aks ettirilgan.

Ushbu standartga ko‘ra tashkilotning o‘zi tomonidan ishlab chiqariladigan (tayyorlanadigan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish

tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo‘ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo‘lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar<sup>3</sup>.

Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko‘ra quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlarga ajratiladi:

a) ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);

b) ishlab chiqarish hususiyatiga ega bo‘lgan mehnatga haq to‘lash xarajatlari, shu jumladan ular bo‘yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to‘lov summalari;

v) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;

g) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo‘lgan boshqa xarajatlar.

Sotish xarajatlari, tashkilotni boshqarish bo‘yicha umumiy xarajatlar (ma‘muriy xarajatlar), boshqa operatsion xarajatlar, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda zararlar mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy zaxiralar nomenklaturasiga bog‘liqdir. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo‘lib: oddiy, me‘yoriy, buyurtma, bosqichli usullar hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo‘llaniladi.

---

<sup>3</sup> 4 - sonli “Tovar-moddiy zaxiralar” Buxgalteriya hisobi Milliy Standarti (O‘zR Moliya vazirining 15.06.2006 y.dagi 52-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan, O‘zR AV tomonidan 17.07.2006 y.da 1595-son bilan ro‘yxatga olingan)

Tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lmagan tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yorlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yornomalar vaqti-vaqti bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi.

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat) (bir xildagi mahsulotlar guruhi)ga doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadigan va hisobga olinadigan yakka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llaniladi. Buyurtmaning ob'ekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruktsiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) tugallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini

tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruktsiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hamdir.

Yarim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxigina hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

Bir texnologik jarayonda bitta xom ashyo va materiallardan turli xildagi, ulardan har biri o'zining sotish narxiga ega bo'lgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) bir vaqtning o'zida ishlab chiqarilganda ushbu turdagi mahsulotlar

(ishlar, xizmatlar) birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb ataladi.

Asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar), sotish qiymati asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga qaraganda juda past bo'lgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) deb ataladi.

Qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)dan birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning farqi shundan iboratki, ularni taqsimlash nuqtasiga etgunga qadar turli xildagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sifatida identifikatsiyalash mumkin emas.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning sotish qiymatini bo'linish nuqtasida aniqlash mumkin bo'lgan hollarda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning ishlab chiqarish tannarxini aniqlash maqsadida ishlab chiqarish xarajatlarini bo'linish nuqtasida taqsimlash quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

a) natura ko'rsatkichlaridan foydalanish usuli. Ushbu usulda bo'linish nuqtasiga qadar qilingan xarajatlar asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning har bir turiga uning natura ko'rsatkichlarida ifodalangan ishlab chiqarishning umumiy hajmidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

b) bo'linish nuqtasidagi sotish qiymati asosidagi usul. Ushbu usulda bo'linish nuqtasiga qadar qilingan xarajatlar asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning har bir turiga uni sotishdan taxmin qilingan tushum umumiy summasidagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning alohida turlari keyingi qayta ishlov berishga o'tkazilgan hamda bo'linish nuqtasida ularni sotishning joriy qiymati (sotish qiymati)ni aniqlashning imkoni bo'lmagan hollarda ishlab chiqarish xarajatlarini bo'linish nuqtasida birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari o'rtasida taqsimlash quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

a) sotishning sof qiymati usuli. Ushbu usulda birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlari bo'yicha xarajatlar ularni sotishning sof qiymatiga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

b) yalpi foydaning sotishdagi doimiy ulushi usuli. Ushbu usuldan foydalanilganda xarajatlar shu tariqa taqsimlanishi lozimki, bunda har bir alohida mahsulot (ishlar, xizmatlar) uchun umumiy yalpi foydaning foiz ulushi bir xil bo'lishi hamda umumiy yalpi foyda ko'rsatkichiga teng bo'lishi kerak. Yalpi foydaning foiz ulushi birgalikda ishlab chiqariladigan mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlarining umumiy tannarxini ushbu mahsulot turlarini sotishdan taxmin qilingan umumiy tushumdan chiqarib tashlab, so'ngra foyda miqdorini sotishdan taxmin qilingan umumiy tushumdan foiz ko'rinishida aks ettirish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Agar ishlab chiqarishning bir texnologik jarayonida bir vaqtning o'zida bir qancha turdagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) chiqib, mahsulot (ishlar, xizmatlar)dan biri yoki bir qancha turi asosiy (maqsadli) turga tegishli bo'lsa, unda qolgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) sifatida qaralishi mumkin.

Asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashda qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning joriy qiymati yoki sotishning sof qiymati ishlab chiqarish jarayonlarining umumiy xarajatlaridan chegiriladi, xarajatlarning qolgan qismi esa asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ga tegishli bo'ladi.

Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning qo'shimcha turlarini hisobga olish quyidagi usullardan biri bilan amalga oshiriladi:

a) qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda sotish. Ushbu usulda joriy davrda sotilgan asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda sotish (sof sotish) summasiga kamaytiriladi. Qo'shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning sotilmagan zaxiralari qoldig'i bo'linish nuqtasidan keyin qo'shimcha mahsulotlarni keyingi qayta ishlanishiga qilingan xarajatlar summasidan kelib

chiqqan holda hisobga olinadi. Qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) qoldig‘ini haqiqatda sotish (sof sotish) summasi qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotilganda tan olinadi;

b) qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni haqiqatda ishlab chiqarish. Ushbu usuldan foydalanilganda asosiy mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarishda sarflangan xarajatlar ishlab chiqarilgan qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar) barcha miqdorining sof sotish qiymati summasiga darhol kamaytiriladi. Sotilmagan qo‘shimcha mahsulot (ishlar, xizmatlar)ning qoldig‘i sotishning sof qiymati bo‘yicha hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish tarmog‘ining hususiyatlariga bog‘liq holda tovar-moddiy zaxiralar, shu jumladan qo‘shimcha mahsulotlar tannarxini aniqlashning qo‘llanadigan usullari tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim.



## **II. BOB. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda mahsulot tannarxi kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobini tashkil etishning xozargi xolati**

### **2.1. Mahsulot tannarxini kiritiladigan moddiy xarajatlarni turkumlash**

Iqtisodiyotdagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar o‘z faoliyati natijalaridan ko‘proq daromad olishga harakat qiladi. Har qanday korxonada nafaqat o‘zining tovarini ancha yuqori bahoda sotishga, balki mahsulot ishlab chiqarish va uni sotishga qilinadigan sarf-xarajatlarni kamaytirishga ham intiladi. Korxonadagi sarf-xarajatlarni kamaytirish uchun, avvalo, ularning turlarini bilib olish kerak. Xarajatlar hisobi buxgalteriya hisobi vazifalaridan kelib chiqib quyidagi elementlar bo‘yicha guruhlash maqsadga muvofiqdir:


#### **2-jadval**

#### **Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining guruhlanishi<sup>3</sup>.**

Guruhlanish belgisi	Xarajat turlari
Ishlab chiqarish jarayonidagi iqtisodiy o‘rniga qarab	Asosiy va doimiy
Tarkibiga qarab	Kompleks va bir elementli
Tannarxga o‘tkazish usuliga qarab	To‘g‘ri va egri
Ishlab chiqarish hajmiga qarab	O‘zgaruvchan va shartli o‘zgaruvchan
Yuzaga kelishiga qarab	Doimiy va bir vaqtli
Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishiga qarab	Ishlab chiqarish va tijorat
Samaradorlikka qarab	Samarali va samarasiz


<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi zamon sarf-xarajatlar g'oyasi bo'yicha korxonada ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan resurslar o'z resurslaridan yoki jalb qilingan resurslar bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:



## 2-chizma. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning sarf-xarajatlarning turkumlanishi<sup>3</sup>.

Tashqi xarajatlar korxonaga o‘zi uchun zarur resurs va xizmatlarga to‘lovlarni amalga oshirishi natijasida vujudga keladigan xarajatlardir. Bunday xarajatlarga yollanma ishchilarning ish haqi, xom-ashyo va materiallar uchun to‘lovlar va boshqa har xil xizmatlar uchun to‘lovlar kiradi. Tashqi xarajatlar to‘lov hujjatlari bilan rasmiylashtiriladi, shu sababli buxgalteriya hujjatlari deb ham ataladi. Korxonaning o‘ziga tegishli bo‘lgan resurslardan foydalanish bilan bog‘liq xarajatlar pul to‘lovlari shaklida chiqmaydi. Ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga bog‘liqlik darajasiga ko‘ra xarajatlar doimiy va o‘zgaruvchan xarajatlarga bo‘linadi.



<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

### **3-chizma. Ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishiga qarab turkumlanishi<sup>3</sup>.**

Ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga (qisqarishi Yoki ortishi) bog'liq bo'lmagan tovarlarning hajmiga ta'sir etmaydigan xarajatlar doimiy xarajatlar deyiladi. Ularning tarkibiga amortizatsiya ajratmalari va boshqa xil xarajatlar kiradi.

O'zgaruvchi xarajatlar ishlab chiqariladigan tovar miqdorining oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qiladi va ishlab chiqarish hajmi o'zgarishiga bog'liqlikda o'zgaradi. Unga xom-ashYo, material, ishchilarning ish haqi va shu kabilarga qilingan sarflar kiradi.

Yuqorida keltirib o'tilgan tasniflash xarajatlar haqida bizga etarli ma'lumot bera olmaydi. Xarajatlarni turkumlashda asosiy e'tibor uning buxgalteriya hisobi va soliq hisobiga mosligi inobatga olinadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, xarajatlarni turkumlashda eng optimal variant sifatida «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga murojaat etamiz.

Ma'lumki, xarajatlar tarkibi 1999 yil 5- fevralda 54- sonli «Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom»da belgilab qo'yilgan. Ushbu Nizomga muvofiq xarajatlar ikki guruhga bo'linib hisobga olinishi belgilangan:

- 1) mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- 2) mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.<sup>1</sup>

Bundan tashqari, moliyaviy faoliyat bo'yicha hamda favqulodda xarajatlar alohida hisobga olinadi.

---

<sup>3</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» nomli 54-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari, 1999. №3.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar:

a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;

b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;

v) boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar, shu jumladan ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan ustama xarajatlar.

Bevosita xarajatlar deb, mahsulotning ayrim turlari tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri, ya'ni bevosita o'tkaziladigan xarajatlarga aytiladi. Bilvosita, ya'ni egri xarajatlar deb, hisobot oyi davomida yig'ib-taqsimlovchi hisobvaraqlarda hisobga olinib, tannarxni kalkulyatsiya qilishda, mahsulotning ayrim turlari tannarxiga biron-bir ko'rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlash yo'li bilan qo'shiladigan xarajatlarga aytiladi.

2. Davr xarajatlari (operatsion xarajatlar):

a) mahsulot sotish xarajatlari;

b) ma'muriy yoki boshqaruv xarajatlari;

v) boshqa operatsion xarajatlar va zararlar;

3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar:

a) foizlarni to'lash bo'yicha xarajatlar;

b) xorijiy valyuta bilan operatsiyalar bo'yicha kurslardagi salbiy farqlar;

v) qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larni qayta baholash natijasidagi zararlar;

g) moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar;

4. Favqulodda xarajatlar, u daromad (foyda)dan olinadigan soliq to'lagunga qadar foyda va zararlarni hisoblab chiqishda hisobga olinadi.

Mahsulot (ish va xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxiga bevosita mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Yuqoridagi xarajatlar iqtisodiy mazmunga ko'ra quyidagi elementlar bilan guruhlarga ajratiladi:

- ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;
- asosiy fondlar va ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.<sup>1</sup>

Yuqorida keltirilgan xarajatlar tasnifidan shu narsa ma'lumki, korxonada xarajatlarning eng katta qismini mahsulotning tannarxida asosiy ulushni tashkil qiluvchi moddiy xarajatlar tashkil qiladi. Moddiy xarajatlar mahsulot tannarxida katta salmoqni egallab, mahsulotning asosiy «bunYodkori» bo'lib hisoblanadi. Bularga «Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom»ga muvofiq quyidagilar kiradi:

1. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot asosini tashkil qiladigan, chetdan sotib olinadigan xom-ashyo va materiallar.

2. Mahsulot ishlab chiqarish texnologik jarayonini bir me'yorda ta'minlab turish, mahsulot o'rash va boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun mahsulot ishlab chiqarish jarayonida ishlatiladigan, sotib olingan materiallar, shuningdek, asosiy fondlar, inshoot, asbob-uskunalarni ta'mirlashda ishlatiladigan materiallar, ehtiyot qismlar.

3. Ushbu korxonada qo'shimcha qayta ishlashni yoki yig'ishni talab etuvchi sotib olingan komplektlashgan mahsulot va yarim tayyor mahsulotlar.

4. Asosiy faoliyat turiga taalluqli bo'lmagan chet korxonalar va xo'jaliklarga bajariladigan ishlab chiqarish xarakteridagi ish va xizmatlar.

5. Tabiiy hamda mineral xom-ashyo bazasini qayta tiklash uchun qilinadigan ajratmalar, suv uchun to'lanadigan to'lovlar va boshqalar.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom» nomli 54-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari, 1999. №3.

6. Chetdan sotib olinadigan yoqilg'ining hamma turlari. Texnologik maqsadlarga, korxonada transporti bajaradigan ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha transport ishlariga, binolarni isitishga, ishlab chiqarishga sarflanadigan sotib olingan energiyaning hamma turlari.

7. Korxonaning xo'jalik, texnologik va boshqa ishlab chiqarish maqsadlari uchun sarflanadigan sotib olingan energiyaning hamma turlari.

8. Me'yor chegarasidagi material resurslarining kamomadi va buzilishidan keladigan nobudgarchiliklar.

9. Material resurslarini transportda tashish, ortish, tushirish bilan bog'liq xarajatlar. Bu xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlarining tegishli elementiga qo'shiladi (xodimlarning ish haqi, mehnatga haq to'lash xarajatlariga, asosiy fondlar amortizatsiyasi, material xarajatlari va boshqalar).

10. Mol etkazib beruvchilardan olingan material resurslari bilan birga sotib olingan tara va o'rash xarajatlari material resurslari qiymatiga qo'shiladi.

11. Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan material resurslari xarajatlaridan, qaytarilgan chiqindilar yoki taralar qiymati ularni sotish yoki ulardan foydalanish haqiqiy tannarxi bo'yicha chiqarib tashlanadi.

12. «Material xarajatlari» elementi bo'yicha aks ettiriladigan material resurslari bahosi (qiymati) quyidagilardan tashkil topadi: sotib olinish qiymatidan, jumladan, barter almashuvida (qo'shilgan qiymat solig'isiz), kommission to'lovlar, tashqi iqtisodiy ta'minot tashkilotlariga to'lanadigan, brokerlar xizmatlari qo'shilgan tovar birjalari xizmat qiymati, boj to'lovlari, chet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan transport, saqlash va keltirish bilan bog'liq xarajatlar (to'lovlar).<sup>1</sup>

Korxonada ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlar muhim rol o'ynaydi. Moddiy xarajatlar xarajatlarning asosiy qismini tashkil qiladi. O'z

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1999 yil 5 fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartipi to'g'risida Nizom» nomli 54-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy Qonunlari, 1999. №3.

navbatida, moddiy xarajatlarning asosini ishlab chiqarish zahiralari tashkil qiladi.

Ishlab chiqarish jarayoniga ishlab chiqarish zahiralari berish va uning sarflanishini hisobga olishni soddalashtirish maqsadida ularni turkumlab olish zarur. Ishlab chiqarish zahiralari ulardan foydalanishning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- ◆ Xom-ashyo - mahsulotning moddiy asosini tashkil etadigan mehnat ashyolaridir. Masalan, paxta, ruda va boshqalar;

- ◆ Materiallar - xom-ashyoga ta'sir etish uchun qo'llaniladigan va mahsulotga ma'lum iste'mol xususiyatini berishda foydalaniladigan vositalardir. Ular ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini tashkil etadi, ya'ni, gazlama, charm, metall va hokazolar;

- ◆ Sotib olinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar - ma'lum darajada ishlov bosqichidan o'tgan, lekin hali pirovard mahsulot darajasiga etkazilmagan mahsulotlar;

- ◆ Yoqilg'i - ko'mir, benzin, torf, gaz hamda neft mahsulotlari;

- ◆ Ehtiyot qismlar - mashina va jihozlarni tuzatishda, ishdan chiqqan qismlarni almashtirishda qo'llaniladigan mashina va mexanizmlarning detal, agregat va qismlari;

- ◆ Qurilish materiallari - bevosita qurilish va montaj ishlari jarayonida, qurilish qismlarini tayyorlashda, bino va inshootlarning alohida konstruktsiya va qurilmalarini ko'tarishda va qurib tugatishda foydalaniladi. Ularga qurilish uchun zarur bo'ladigan yog'och-taxta, shifer, mix va boshqalar kiradi;

- ◆ Idish va idish materiallari - turli material va mahsulotlarni o'rash, joylashtirish, tashish hamda saqlashda ishlatiladigan buyumlardir. Ularga yog'och, karton, metallardan yasalgan shisha va boshqa idishlar kiradi;

- ◆ Inventar va xo'jalik anjomlari - ushbu guruhga korxonada xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan inventar buyumlar hamda arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar kiradi;



◆ Boshqa tomonga qayta ishlashga berilgan materiallar - korxonada balansida turgan, qayta ishlash uchun boshqa korxonaga berilgan materiallar. Ularga, asosan, qayta ishlash uchun o'zga korxonaga berilgan o'simlikchilik, chorvachilik hamda o'rmon xo'jaligi mahsulotlari kiradi;

◆ Boshqa materiallar - yuqoridagi satrlarda ko'rsatib o'tilmagan boshqa materiallar kiradi. Ularga chiqitlar, tuzatilmaydigan braklar, metallom va boshqalar misol bo'ladi.<sup>1</sup>

Mol-mulk inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga kiritilishi uchun quyidagi mezonlarga javob berishi lozim:

- xizmat muddati bir yildan oshmagan;

- xizmat muddatidan qat'i nazar bir birlik (komplekt) uchun O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid o'lish paytida) eng kam ish haqining ellik baravarigacha miqdorda qiymatga ega bo'lgan buyumlar. Rahbar hisobot yilida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining kamroq chegarasini belgilashga haqli.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- maxsus asbob-uskunalar va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish Yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan, maqsadli asbob va moslamalar);

- maxsus va sanitariya kiyimi, maxsus poyabzal;

- ko'rpa-to'shaklar;

- Yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo'yiladigan asboblardan va hokazolardan);

- oshxona inventari, shuningdek dasturxon va sochiqlar;

- barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulsiz) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;

---

<sup>1</sup> BXMS №21 «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyatini buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma». –T.: O'z Moliya, 2002. yil.

- foydalanish muddati bir yildan oshmaydigan almashtiriladigan uskunalar;
- ovlash qurollari (to'rlar, matraplar, trallar va hokazo).

Korxonalar ularning vazifasi va moliya-xo'jalik faoliyatidagi o'rniga bog'liq holda inventar, asboblardan va xo'jalik anjomlarini xisobga olish uchun xisobvaraqlarni mustaqil ochish xuquqiga ega. Topshirish paytida inventar va xo'jalik anjomlarining qiymati to'laligicha ishlab chiqarish Yoki davr xarajatlariga kiritiladi.

Hozirgi kunda xarajatlarni, shu jumladan moddiy xarajatlarni turkumlashda turlicha Yondoshuvlar mavjud. Bu borada biz yuqorida atroflicha to'xtalib o'tdik. Xarajatlarning turli korxonalarda turlicha turkumlanib, xisobga olib borilishi ularda boshqaruv xisobini to'g'ri tashkil qilishga to'sqinlik qiladi. Bizning fikrimizcha, barcha korxonalar xarajatlarni turkumlashda «Xarajatlar tarkibi to'g'risida»gi Nizomga asoslanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## **2.2. Ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlarni hujjatlarda rasmiylashtirish**

Moddiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olish mahsulot tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun hisobni shunday tashkil etish kerakki, unda haqiqiy xarajatlarni normalar bilan uzluksiz va tezkor solishtirish imkoni bo'lsin. Moddiy xarajatlar tarkibi "Xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi Nizomda keltiriganligi bois biz bitiruv malakaviy ishimizda bu narsani keltirib o'tmadik.

Materiallar ishlab chiqarishga korxonada belgilangan norma bo'yicha ularni hajmi, og'irligi, hisobi qayd qilingan hujjatlar asosida qo'yib yuboriladi. Boshlang'ich hujjatlarni material hisob guruhi ishlab chiqadi.

Xarajatlar moddalari bo'yicha materiallar sarfini hisobga olish uchun turli xil hujjatlashtirish usullari qo'llaniladi. Ko'proq inventar va partion usullaridir.

Inventar usulda rejalashtirilgan mahsulot hajmiga nisbatan o'rnatilgan normalar chegarasida tsexga qo'yib yuborilgan materiallar qayd qilingan

boshlang'ich hujjatlar asosida buxgalteriya sarf qilingan materiallar qiymatini hisoblab chiqadi. Bunda normalardan chetga chiqish hisobga olinadi.

Materiallarni hisobga olishning inventar usuli tsexlarda doim oy boshi yoki oxiriga ishlatilmay qolgan materiallar qoldig'i mavjud bo'lsa ishlatiladi. Bundan kelib chiqqan holda materiallar haqiqiy sarfi ushbu materiallar qoldig'i chegirilib tashlanib hisoblanadi. Buning uchun har bir hisob davri (smena, hafta, oy) oxirida ishlatilmay qolgan materiallar inventarizatsiyasi o'tkaziladi. Shundan so'ng materiallar xarajati aniqlanadi: boshlang'ich qoldiqqa jo'natilgan materiallar qo'shib, oxirgi qoldiq olib tashlanadi.

Xom-ashyo, asosiy materiallar va sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar miqdori va summasi, ularning korxonada omboridan berilishini rasmiylashtiradigan dastlabki hujjat asosida aniqlanadi. Chunki bu hujjatlarda sarflanayotgan mehnat buyumlari qanday mahsulotga sarflanishi aniq ko'rsatilgan bo'ladi. Buning uchun ishlatilmay qolgan materiallar ro'yxatdan o'tkaziladi. Yangi oyning birinchi kunida materiallarning bu qoldig'i buxgalteriya yozuvlari bilan yana ishlab chiqarish xarajatlari hisobvaraqlariga o'tkaziladi.

Moddiy xarajatlar tannarxga o'tkazilayotganda avval ular bo'yicha xarajatlar paydo bo'lish joylarida hisobga olinadi, keyin tannarxga o'tkaziladi. Ishlab chiqarishga ishlab chiqarish zahiralari sarflanganida quyidagicha provodka beriladi:

D-t 2010 "Asosiy ishlab chiqarish"

K-t 1010 "Xom-ashyo materiallari".

Zahira summasi mahsulot, ish va xizmatlar tannarxiga qo'shiladi hamda ish haqi hisoblangan hisobvaraqlarga olib boriladi.

Debet 2010, 2310, 2510-hisobvaraqlar

Kredit 8910-«Kelgusi xarajatlar va to'lovlar rezervi» hisobvaraYoi.

Hisoblangan ish haqi va mukofotlarni taqsimlash hamda ta'vil uchun oyliklarga zahiralar yaratish bilan bir qatorda tibbiyot sug'urtasi, nafaqa fondlariga o'rnatilgan foizlar miqdorida ajratmalar hisoblanadi.

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan moddiy qiymatliklarni aks ettiruvchi barcha dastlabki hujjatlar ishlab chiqarish xarajatlarining ma'lum shifrlari bo'yicha, ya'ni ishlab chiqarish xarajatlarining ob'ektlari bo'yicha guruhlanib, uning haqiqatda ishlab chiqarishga berilgan materiallarning sarflanish yo'nalishlarini ko'rsatuvchi taqsimlovchi qaydnomalar tuziladi.

Moddiy xarajatlarning qanday yo'nalishdaligiga qarab buxgalteriya hisobining jurnal-order shaklidan foydalanayotgan korxonalarda moddiy xarajatlarni ko'rsatuvchi buxgalteriya provodkalari 12, 13, 15-o'aydnomalar va 10- hamda 10/1-jurnal-orderlarda aks ettiriladi.

Ishlab chiqarishga sarflangan asosiy materiallar va sotib olingan tayyor mahsulotlar boshlang'ich hujjatlar asosida hisobga olish faqat tannarxga to'g'ridan-to'g'ri o'tkaziladigan materiallar bo'yicha bo'lishi mumkin. Agar korxonada bir xil materialdan bir vaqtning o'zida bir necha xil mahsulot ishlab chiqarilsa, u holda tannarxni aniqlashda materiallar sarfi kalkulyatsiya ob'ektlari o'rtasida biron-bir ko'rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlanadi. Sanoatning ba'zi bir tarmoqlarida (mashinasozlik, kimyo, engil sanoat va boshqalar) taqsimlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy soniga nisbatan qayta hisoblangan materiallarni me'yordagi sarfida mutanosib ravishda taqsimlashdir.

Ishlab chiqarish xarajatlarini hujjatlarda to'g'ri va o'z vaqtida rasmiylashtirish korxonada boshqaruv hisobining samarali ishlashini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda hisob ma'lumotlari asosida korxonada ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish va kelgusidagi faoliyatni rejalashtirish imkoniyati oshadi.

2010-«Asosiy ishlab chiqarish» va 2310-«Yordamchi ishlab chiqarish» hisobvaraqlari bo'yicha analitik hisob har bir mahsulot turi, kalkulyatsiya

bandlari va bajarilgan joyi bo'yicha alohida yuritiladi. Buning uchun analitik hisob kartochkasi yuritiladi.

2510-«Umumishlab chiqarish xarajatlari» hisobvarag'i bo'yicha analitik hisob 12-qaydnomada yuritiladi. 12-qaydnoma shaxmat shaklida bo'lib, tegishli grafalarga hisobvaraqlar bo'yicha xo'jalik muomalalarining summasi yoziladi.

Tsexlar bo'yicha xarajatlar aks ettirilib va №12-qaydnomada jami ma'lumotlar chiqarilgandan so'ng, tsex qaydnomalari xarajatlari jamlanadi. Yakuniy ma'lumotlarni «Korrespondentlashadigan hisobvaraqlar jami» jadvaliga, qaydnomaning orqa tomoniga yoziladi. Yuqoridagi ma'lumotlar №10-jurnal-orderda xarajatlar bo'yicha sintetik hisobvaraqlarda yozuv uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shundan so'ng butun korxonada xarajatlar va ishlab chiqarish faoliyati bo'yicha natijalarni aniqlash lozim. Buning uchun №12 va 15-qaydnomalarda hisobga olingan ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar va xarajatlar yo'nalishi bo'yicha umumlashtirib tahlil etish va sintetik hisobvaraqlar bo'yicha kredit oborotini aniqlash kerak. Bu ma'lumotlar Bosh kitobni yuritishga asos bo'ladi.

Korxonada bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini №10-jurnal orderda jamlanadi. Ushbu jurnal-order shaxmat qaydnomasi printsipligiga asosan tuziladi. Kredit hisobvaraqlar ustunlar bo'yicha, debet hisobvaraqlar qatorlar bo'yicha joylashtirilgan. Ya'ni ishlab chiqarish xarajatlari sintetik hisobvaraqlar tizimi qatorlar bo'yicha joylashtirilgan ustunlar va qatorlar bo'yicha ma'lumotlar yig'ilganda natijalar bir-biriga mos kelishi kerak. №10-jurnal-order ma'lumotlari ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar bo'yicha aniqlash uchun hamda tannarx hisoblash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

№10-jurnal-order yakuniy ma'lumotlarini №10-1-jurnal-orderning qatori bo'yicha ko'chiriladi. №10-1-jurnal-order 10-jurnal-orderning davomi bo'lib hisoblanadi. Unda №10-jurnal-orderdagi kredit bo'yicha hisobvaraqlar oboroti

aks ettiriladi va noishlab chiqarish hisobvaraqlar debeti bilan korrespondetsiyalashadi.

Yakuniy ma'lumotlar jamlanib, kredit bo'yicha hisobvaraqlar oborot summolari aniqlanadi va Bosh kitobga ko'chiriladi. Bosh kitob yillik hisobotlarning asosini tashkil etuvchi yakuniy ma'lumotnoma bo'lib hisoblanadi. Ushbu kitobda ma'lum davr mobaynida har bir hisobvaraq bo'yicha xo'jalik operatsiyalari oboroti aks ettiriladi.

Moddiy xarajatlarni to'g'ri hisobga olish mahsulot tannarxiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun hisobni shunday tashkillashtirish kerakki, unda haqiqiy xarajatlarni normalar bilan uzluksiz va tezkor solishtirish imkoni bo'lsin.

### **2.3. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar hisobini baholash va maxsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullari**

Maxsulot ishlab chiqarishda moddiy xarajatlar mahsulot tannarxida salmoqli hissaga ega. Shuning uchun buxgalteriya hisobi haqiqatda qilingan moddiy xarajatlar summasini aniqlash bilan kifoyalanmasdan, bu xarajatlar ustidan doimiy nazorat o'rnatib, imkoni boricha moddiy xarajatlarni qisqartirish yo'llarini topishga ham xizmat qilishi kerak.

Ishlab chiqarish zaxiralirni buxgalteriya hisobida to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ishlab chiqarish zahiralarini baholash «Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMSga asoslangan bo'lishi lozim. Ushbu standartga muvofiq materiallar eng kam bahoda, ya'ni tannarxi bo'yicha yoki sof sotish qiymatida hisobga olinishi lozim.<sup>1</sup> Chunki buxgalteriya hisobining ehtiyotkorlik tamoyilini aks ettirishning biri bo'lib, past baholash qoidasi hisoblanadi: tannarx bo'yicha yoki sotishning sof qiymati.

«Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMSga asosan tovar moddiy zahiralarining tannarxi barcha sotib olish xarajatlarini va tovar-moddiy

---

<sup>1</sup> «Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMS.

zahiralarini manzilga etkazib berish hamda tegishli holatga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan transport-tayyorlov xarajatlarini o‘z ichiga oladi.<sup>1</sup>

Materiallarni sotib olish xarajatlari sotib olish qiymatini, import bojlari va yig‘imlarni, mahsulotni sertifikatlash qilish xarajatlarini, ta‘minot, vositachi tashkilotlarga to‘langan komission to‘lovlarni, soliqlarni (keyinchalik hisob-kitob tarzida), shuningdek transport-tayyorlov xarajatlari, xizmat va zahiralarini sotib olish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlarni o‘z ichiga oladi. Savdo diskontlari, siylovlari va shunga o‘xshash boshqa chegirmalar materiallarni sotib olish xarajatlarini belgilashda amalga oshiriladi. Boshqa xarajatlar, agar ular materiallarni manziliga etkazish paytida paydo bo‘lgan taqdirdagina tovar-moddiy zahiralarining tannarxiga kiritiladi. Masalan, ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan qo‘shimcha xarajatlar yoki muayyan mijozlar uchun mahsulot ishlab chiqarish sarflarini materiallar qiymati bo‘yicha xarajatlarga kiritish imkoniyati vujudga kelishi mumkin.

Materiallarning har bir turini tayyorlash, haqiqiy tannarxini hisoblash ko‘p mehnat va vaqt talab qilishi tufayli ular joriy hisobda - o‘rtacha sotib olinish bahosi, reja tannarxi bo‘yicha va boshqa baholarda baholanadi. Materiallarning haqiqiy tannarxi bilan o‘rtacha sotib olinish bahosi yoki reja tannarxi o‘rtasidagi farq ularning guruhlari bo‘yicha alohida hisobvaraqlarda hisobga olinadi. Amaliyotda kompyuterlarning keng qo‘llanilishi material zahiralarini har bir turining haqiqiy tannarxini hisoblash imkoniyatini yaratadi.

Ishlab chiqarish xarajatlariga hisobdan chiqariladigan materiallarning haqiqiy tannarxini aniqlash, ularni baholashning quyidagi usullarini qo‘llash bilan amalga oshirish mumkin:

1. O‘rtacha tannarx bo‘yicha yoki AVECO usuli;
2. O‘rtacha chamalangan baholar bo‘yicha, birinchi tushum -birinchi xarajat, FIFO usuli;

---

<sup>1</sup> «Tovar-moddiy zahiralar» nomli 4-son BHMS.

3. O‘rtacha chamalangan baholar bo‘yicha, oxirgi tushum - oxirgi xarajat, LIFO usuli.<sup>1</sup>

O‘rtacha tannarx bo‘yicha hisoblash usuli materiallarning o‘rtacha narxlariga asoslangan. Bu usul bo‘yicha har bir birlikning qiymati davr boshlarida o‘xshash birliklarning o‘rtacha o‘lchanadigan qiymatidan va davr mobaynida sotib olingan va ishlab chiqarilgan o‘xshash birliklar qiymatidan belgilanadi. O‘rtacha qiymat davriy asosda yoki xo‘jalik yurituvchi sub’ektda mavjud bo‘lgan vaziyatga ko‘ra, har bir qo‘shimcha etkazib berish davomida hisoblanishi mumkin.

FIFO usulida ishlab chiqarishga birinchi sotib olingan materiallar partiyasi bo‘yicha baholanadi, so‘ngra ikkinchi partiya bahosi bo‘yicha va hokazo. FIFO usulida xom-ashyo, materiallar va tovarlar kelib tushish tartibi bo‘yicha baholanadi. Bu shundan dalolat beradiki, materiallar tannarxining qismi sifatida nisbati oldingi bahoda haqiqatda ushbu materiallar yuqori yoki past narxda sotib olinganligidan qat’iy nazar, sarflanadi. Materiallarning bahosi ularning joriy bahosini aks ettiradi. Inflyatsiya davrida FIFO usulidan qo‘llanilsa, sof foydaning eng yuqori darajasiga erishiladi.

LIFO usulida materiallar ishlab chiqarishga avval oxirgi partiya tannarxi bo‘yicha yoziladi, so‘ngra avvalgi partiya va hokazo. Zahirada qolgan materiallar qiymati hisobot davrining oxirida birinchi sotib olingan material tannarxi bo‘yicha hisoblanadi. LIFO usulidan foydalanish inflyatsiya davrida eng past foydani, deflyatsiya, ya’ni narxlarning pasayishi vaqtida eng yuqori foydani keltiradi.

### 3-jadval

#### «Xuvoydo» MChJ yil davomida sotib olingan xom-ashyo hajmi

Sotib olish sanasi	Miqdori, kg	Bir birlik xom-ashyoning qiymati, so‘m	Jami qiymat, ming so‘m
--------------------	-------------	--	------------------------

<sup>1</sup> A.Karimov, F.Islomov. A.Avloqulov. Buxgalteriya hisobi. –T.:O‘qituvchi, 2004.



10 mart	1000	600	600
28 may	1700	800	1360
9 noyabr	1500	900	1350
Jami	4200		3310

Bir qancha mamlakatlarning soliq qonunchiligida, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida bu usulni qo'llash taqiqlanadi. Chunki bu usulda korxonada foydasidan to'lanadigan soliqni hisoblash bazasi kamayib ketadi.

Yil davomida 2800 so'mlik xom-ashyo sarflandi va omborda 1400 so'mlik material qoldi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida materiallar sarflanishi va ularning qoldig'ini FIFO, LIFO va AVECO usullarida baholaymiz.

#### 4-jadval

##### Xom-ashyoni FIFO usuli bo'yicha baholash

Xom-ashyo sarfi	Miqdori, kg	Bir birlik xom-ashyoning qiymati, so'm	Jami qiymat, ming so'm
1-partiya	1000	600	600
2-partiya	1700	800	1360
3-partiya	100	900	900
Jami sarflanish	2800		2860
Ombordagi qoldiq	1400	900	1260

#### 5-jadval

##### Xom-ashyoni LIFO usuli bo'yicha baholash

Xom-ashyo sarfi	Miqdori, kg	Bir birlik xom-ashyoning qiymati, so'm	Jami qiymat, ming so'm
1-partiya	1500	900	1350
2-partiya	1300	800	1040
3-partiya	-	-	-

Jami sarflandi	2800		2390
Ombordagi qoldiq	400	800	320
	1000	600	600
Jami qoldiq	1400		920

### 6-jadval

#### Xom-ashyoni AVECO usuli bo'yicha baholash

Xom-ashyo sarfi	Miqdori, kg	Bir birlik xom-ashyoning qiymati, so'm	Umumiy qiymat, ming so'm
1-partiya	1000	600	600
2-partiya	1700	800	1360
3-partiya	100	900	900
Jami sarflandi	2800	788.8	2207
Ombordagi qoldiq	1400	788.8	1103

Xom-ashyo birligining o'rtacha qiymati AVECO usulida quyidagicha aniqlanadi:  $(3310/4200)=788,8$  so'm.

Yuqorida keltirilgan usullardan foydalanib, sarflangan xom-ashyo tannarxi hamda yil oxirida zaxiralarga taqsimlanadigan xarajatlarni aniqlash lozim:

### 7-jadval

#### Sarflangan xom-ashyo tannarxi va ularni zahiralarga taqsimlash tartibi

**FIFO** usuli bo'yicha:

Ming  
so'mda

Sotishdan olingan daromad	3250
Jami xom-ashyo tannarxi	3310
Hisobot davri oxirida xom-ashyo qoldig‘i	1260
Sarflangan xom-ashyo tannarxi	2050
Yalpi foyda	1200
<b>LIFO</b> usuli bo‘yicha:	
Sotishdan olingan daromad	3250
Jami xom-ashyo tannarxi	3310
Hisobot davri oxirida xom-ashyo qoldig‘i	920
Sarflangan xom-ashyo tannarxi	2390
Yalpi foyda	860
<b>AVECO</b> usuli bo‘yicha:	
Sotishdan olingan daromad	3250
Jami xom-ashyo tannarxi	3310
Hisobot davri oxirida xom-ashyo qoldig‘i	1103
Sarflangan xom-ashyo tannarxi	2207
Yalpi foyda	1043

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, xom-ashyoni baholashning turli xil usullarini qo‘llash sharoitida korxonaning yalpi foydasi turlicha bo‘ladi.


LIFO usuli «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ni tuzish uchun ko‘proq talabga javob beradi. Ammo amaldagi bahoning oshishi yoki pasayishi sharoitida ishlab chiqarish zahiralarini qiymatini joriy balansda baholash uchun unchalik maqsadga muvofiq emas va uning O‘zbekistonda qo‘llanilishiga ruxsat berilmagan. Balans tuzishda FIFO usulini qo‘llash maqsadga muvofiqdir, chunki ishlab chiqarish zahiralarini qiymati hisobot davri oxirida joriy bahoga yaqinroq bo‘ladi va korxonaning aktivlarini aniq aks ettiradi.

Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usuli deb, u yoki bu mahsulot birligining tannarxini aniqlashda qoʻllaniladigan usullar tizimiga aytiladi.

Ishlab chiqarish turi va murakkabligi, ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi va xarakteri, ishlab chiqarish jarayonining uzun-qisqaligi va boshqa omillarga koʻra kalkulyatsiya qilishning 4 usuli mavjud:

Har bir korxonada shu korxonaning ishlab chiqarish xususiyatlari hisobga olingan holda kalkulyatsiyalashning u yoki bu usuli qoʻllanilishi mumkin.

**Kalkulyatsiya qilishning oddiy usuli.** Bu usul tugallanmagan ishlab chiqarish boʻlmagan yoki oz miqdorda boʻlgan, oddiy ishlab chiqarishga mansub boʻlgan korxonalarda qoʻllaniladi. Ushbu usulda hisobot davrida ishlab chiqarishga taalluqli barcha xarajatlarning umumiy qiymati aniqlanib, bu xarajatlar mahsulot turlari oʻrtasida maʼlum koʻrsatkichlarga (oʻrtacha reja tannarxi, asosiy ishchilarning ish haqi, materiallar xarajati va boshqalar) mutanosib ravishda taqsimlanadi.



#### **4-chizma. Kalkulyatsiya qilish usullari.**

**Jarayonlar bo'yicha mahsulot tannarxi kalkulyatsiyasi.** Bu usul ko'pincha metallurgiya, to'qimachilik va boshqa sanoatning shunga o'xshash tarmoqlarida qo'llanilishi mumkin.

Bizningcha ishlab chiqarish jarayonlarini va tannarx tarkibi hamda tannarx hisoblashning bosqichlarini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

#### **8-jadval**

##### **Ishlab chiqarish tannarxining jarayonlar bo'yicha shakllari**

<b>To'qimac hilik ishlab chiqarish jarayonining bo'limlari</b>	<b>Mahsulot tannarxining shakllanishi</b>	<b>Mahsulot tannarxi birligi</b>
1. Moddiy ta'minot bo'limi	Xom-ashyo materiallarni sotib olish qiymati va sotib olish, korxonaga keltirish va saqlash xarajatlari	Xom-ashyo va materiallarning har bir turi yoki guruhi va bir birligini tannarxi
2. Ishlab chiqarish bo'limi	Ishlab chiqarishga sarflangan xom-ashyo va materiallarnikg bahosi va ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan to'g'ri va egri xarajatlar	Mahsulotlarni individual, texnologik, brigada, tsex va ishlab chiqarish tannarxlari
Z. Sotish bo'limi	Ishlab chiqarishdan olingan tayyor mahsulot qiymati,saqlash, xaridorlarga etkazib berish xarajatlari,	Jami sotiladigan mahsulotlar va ularning bir birligi tannarxi

	bozorni o'rganish, xaridorlar topish, reklama va boshqa xarajatlar.	
--	---	--

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish jarayonlarini har bir bosqichlari bo'yicha tannarxlarining tarkibi, aniqlash usullari, vazifalari hamda tannarx o'lchovlari alohida qilib ko'rsatilgan. Shuning uchun tannarxni aniqlash va hisobga olish muhim iqtisodiy jarayon hisoblanadi. Aks holda korxonada mahsulot sotishdan zarar ko'radi.

Jarayonlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usuli mahsulot ishlab chiqarishda xom-ashyoning bir necha jarayondan o'tganidan so'ng tayyor mahsulot holiga keladigan ishlab chiqarishlarda qo'llaniladi.

Mahsulot ishlab chiqarishning oxirgi jarayonidan tashqari har bir jarayon nihoyasiga etkazilgan xom-ashyoga ishlov berish bosqichi bo'lib, uning natijasida korxonada yakuniy, iste'molga yaroqli tayyor mahsulot emas, balki o'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulot oladi. Olingan yarim tayyor mahsulotlar korxonada ishlab chiqarishning keyingi bosqichlarida foydalanilishi bilan birga, uni keyinchalik yarim tayyor mahsulot yoki butlovchi qism sifatida sotilishi ham mumkin.

Jarayonlar bo'yicha xarajatlarni hisobga olish usuli barcha korxonalarda bir xil emas. Ba'zi korxonalarda to'g'ri xarajatlar buxgalteriya hisobida alohida bir jarayon bo'yicha aks ettiriladi, xom-ashyoning dastlabki qiymati esa faqat birinchi jarayon mahsuloti tannarxiga kiritiladi. Yakuniy mahsulotning tannarxi barcha jarayonlar xarajatlari summasidan iborat bo'ladi.

**Buyurtmali usul.** Kalkulyatsiya qilishning buyurtmali usuli murakkab mahsulot, yakka tartibda mahsulot ishlab chiqarishda, tajriba ishlarini bajarishda qo'llaniladi. Bu usulning mohiyati shundan iboratki, bunda barcha asosiy xarajatlar har bir ishlab chiqarishda buyurtmachi uchun alohida hisob olinadi. Har bir buyurtmaga buyurtma varag'i ochilib, bu erda xarajatlar yig'iladi. Kabul qilingan buyurtma maxsus kitoblarda ro'yxatga olinadi va unga navbatdagi

raqam biriktirilib, ushbu raqam buyurtma tayyor holga keltirilgunga qadar uning shifri bo‘lib turadi. Buyurtma bajarilishi mobaynida rasmiylashtirilgan hamma dastlabki hujjatlarda ana shu shifr qo‘yib boriladi. Buyurtma mahsulot tayyor holga keltirilgandan so‘ng varaqa yopiladi.

Ishlab chiqarish buyurtmalari chetdan mahsulotning ma‘lum turlarini ishlab chiqarish uchun beriladi. Boshqa xarajatlar esa tsex yoki korxonada bo‘yicha hisob qilinadi, ayrim ishlab chiqarish buyurtmalari tannarxini kalkulyatsiyalashda ularning tannarxi biron-bir ko‘rsatkichga mutanosib ravishda taqsimlash yo‘li bilan o‘tkaziladi. Buyurtmali usulda xarajatlar hisobi va kalkulyatsiyalash ob‘ekti ayrim ishlab chiqarish buyurtmalari hisoblanadi. Buyurtmaning haqiqiy tannarxi har oyda emas, balki buyurtma tayyor bo‘lganidan keyin aniqlanadi.

**Kalkulyatsiya qilishning normativ usuli.** Normativ usul (standart cost) – oldindan atroflicha hisoblangan, bir dona mahsulotni tayyor holga keltirish uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni hisoblab belgilash usulidir. Bu usul rivojlangan xorij davlatlari kompaniya va firmalarining deyarli barchasida qo‘llaniladi. Lekin bu tizimda qo‘yilgan maqsadga erishishda omillarning mohiyatini va ta‘sirini baholash turlicha:

Normativ usulning ustunligi shundan iboratki, u me‘yordan chetga chiqish bo‘yicha boshqarish tamoyilini bajarishga yordam beradi. Ya‘ni xarajatlarni hamma moddalari bo‘yicha me‘yordan chetga chiqishini davriy aniqlanishi, boshqaruvga operativ aralashishni talab etadigan ma‘lumot etkazib berishga imkon yaratadi.

Normativ usul faqatgina hisob usuli bo‘libgina qolmay, balki xo‘jalik yuritish usuli hamdir. Boshqarish, hisob va nazorat usuli sifatida normativ usul xo‘jalik faoliyatini rejalashtirish, hisobga olish va tahlil qilish o‘rtasida tor bog‘liqlikni ta‘minlaydi.

Normativ usulni asosiy maqsadi – me‘yordan chetga chiqishni bir tizimda hisobga olish hamda me‘rulashtirishni, texnika-texnologiyani, ishlab chiqarishni

va mehnatni takomillashtirish asosida ishlab chiqarishni operativ (tezkor) boshqarishdir.

Normativ usul tannarx shakllanishini kompleks boshqarish tizimidir. Shuning uchun uni qayta ishlash va joriy qilishda birlashma boshqaruvining hamma xizmatlari ishtirok etishi lozim. Ya'ni normativ usulni qayta ishlash va joriy etishda, avvalambor, quyidagi boshqaruv xizmatlari ishtirok etadi: reja-iqtisod boshqaruvi, hisob va hisobot boshqaruvi, material-texnik ta'minoti, bosh texnolog, bosh konstruktor, bosh energetik, texnik me'yorlashtirish bo'limlari.

Normativ usulning asosiy printsiplaridan quyidagilardir:

- mahsulotning me'yordagi tannarxi aniqlanadi, buning uchun normativ kalkulyatsiya tuziladi;
- hisobot oyi davomida asosiy ishlab chiqarish xarajatlarining haqiqiy summasi emas, balki haqiqiy summasi bilan me'yorlashtirilgan summasi o'rtasidagi farq, ya'ni me'yordan chetga chiqish hisobga olinadi;
- hisobot davri davomida me'yorlarning o'zgarishlari ham hisobga olinadi.

Normativ usulning murakkabligi esa shundan iboratki, u quyidagilarga asoslangan bo'lishi kerak:

- to'g'ri tashkil qilingan normativ xo'jalik;
- ilmiy-texnik jihatdan asoslangan me'yorlarning mavjudligi;
- barcha xarajatlar bo'yicha buxgalteriya hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirish va ular ustidan nazorat olib borish;
- hisob ishlarini bajarishda kompyuterlardan kengroq foydalanish.

Faqatgina ana shu talablar bajarilgan hollardagina haqiqiy normativ usul haqida gapirish mumkin.

Normativ usulda mahsulotning haqiqiy tannarxi quyidagicha aniqlanadi:

$$XT = MT \pm MCh + MU,$$

bu erda:

XT - haqiqiy tannarx;



MT - me'yordagi tannarx;

MCh - me'yordan chetga chiqish;

MU - me'yorning o'zgarishi.

Kalkulyatsiya qilishning normativ usuli ishlab chiqarish xarajatlari ustidan tezkor nazorat olib borish, korxonada ichki ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish imkoniyatini beradi. Shuning uchun bu usul eng dolzarb va ilg'or usul hisoblanadi.

Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarishida xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlashda. «Direkt-kosting» usulini qo'llash bo'yicha bir qancha tavsiyalar ishlab chiqildi.

«Direkt-kosting» usulining o'ziga xos xususiyatlaridan biri birinchidan, xarajatlarning doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarga bo'linishi hisoblanadi.

Ayrim iqtisodchilarning fikricha o'zgaruvchan xarajatlar bevosita ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi va assortimentiga bog'liq bo'ladi.

Doimiy xarajatlar esa aksincha mahsulot hajmi o'zgarishiga bog'liq emas.

«Direkt-kosting» usulida daromad va xarajatlar hisobotida ishlab chiqarish xarajatlarining turkumlarga bo'linishi foyda hajmining mahsulot sotish hajmiga bog'liqligini aniqlashga va tannarxni nazorat qilishga imkon yaratadi. Bu usulning mohiyati shundaki, o'zgaruvchan xarajatlar tayyor mahsulotlar turlari bo'yicha yig'iladi, doimiy xarajatlar esa alohida schetlarda yig'ilib, ular qaysi davrga tegishli bo'lsa, o'sha davrdagi umumiy moliyaviy faoliyat natijalari hisobidan qoplanadi.



## **5-chizma. O'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tartibi**

Bu usulda mahsulot tannarxini o'zgaruvchan va doimiy xarajatlar bo'yicha nazorat qilish imkoniyatini yaratadi va foyda olish maqsadida har bir mahsulotning turini hamda assortimentini nazorat qiladi. Bunday nazoratning asosiy tamoyili material-jonli mehnat-ustama xarajatlardan iboratdir. O'zgaruvchan xarajatlar bo'yicha kalkulyatsiyalash tizimini joriy qilish to'qimachilik buyumlarining narxiga bevosita ta'sir etib, ishlab chiqarishning zararsizligini tahlil qilishda hamda hisob-kitob uchun ma'lumotlarni guruhlash va foyda hajmini optimal variantlarini aniqlash imkonini beradi.

Umuman olganda, korxonalarda moddiy xarajatlar hisobini yuritish bugungi kundagi talab darajasida emas. Eng katta muammo shundaki, xarajatlarni hisobga olishda dastlabki hisob, ya'ni muomalalarni hujjatlashtirish jarayoni ko'p vaqt talab etadi hamda hisob ishlarini sekinlashtiradi. Bundan tashqari, moddiy xarajatlar hisobini yuritishda xarajatlarni hisobga olishning ilg'or usullari hamon korxonalarimizda qo'llanilishi sust kechmoqda. Bizning fikrimizcha, korxonalarda xarajatlarni hisobga olishda normativ usuldan kengroq foydalanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **III. BOB. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini o‘tkazishni tashkil etish**

#### **3.1. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini tashkil qilish va natijalarini umumlashtirish**

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarining samaradorligi, ularni doimiy nazorat qilish orqali ta’minlanadi. Mulk egalari ishlab chiqarish jarayonini nazorat va audit qilish orqali ishlab chiqariladigan mahsulotlarni tannarxini to‘g‘ri aniqlab, bozordagi tovarlar segmentini va raqobatdoshligini saqlaydi.

Shu bilan bir qatorda davlatning monetar siyosatiga to‘la mosligi, tannarxni to‘la shakllantirish va uni pasaytirish imkonini yaratadi.

Korxonalarda xarajatlarni hisobga olish va audit o‘tkazish nazoratning umumiy tamoyillariga mos bo‘lishi kerak. Bunda tarmoq faoliyatining xususiyatlari, texnologik jarayonlarning murakkabligi va albatta boshqarish tizimining ko‘lami inobatga olinishi zarur.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda doimiy va yuqori haq to‘lanadigan, kasblardan biri buxgalteriyadir. Keyingi yillarda bu kasbning roli yanada oshib bormoqda. Milliy hisob tizimi asoslari, soliqqa tortish, foydani hisoblash, transfert baholar, inflyatsiya omillarini to‘g‘ri hal etish iqtisodiyotning asosiy boshlang‘ich muammolaridan hisoblanadi. Mamlakatimizda ham bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishda ko‘plab malakali buxgalterlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Agar

xorijiy davlatlar tajribasiga nazar salsak, AQShda buxgalterlar to'rtta yo'nalish bo'yicha ishlaydilar.

AQSh mehnat vazirligining ma'lumotlariga ko'ra umumiy buxgalterlar soni 1,2 mln. kishini tashkil etadi.

AQShlarida sertifikatli buxgalterlar ishlab chiqarish sohasida, moliyaviy direktor, bosh buxgalter va ichki auditor lavozimlarida ishlashi mumkin. Mustaqil buxgalterlarning ko'pchiligi transmilliy auditorlik firmalarida, milliy auditorlik firmalari va individual faoliyat bilan shug'ullanadi.

Dunyo bo'yicha eng rivojlangan 5 ta yirik auditorlik firmalari mavjud bo'lib, uni «katta beshlik» deb atashadi. Bu firmalar ko'plab mamlakatlarga xizmat ko'rsatadi.

AQSh da buxgalter va auditorlik xizmati yo'nalishlari bo'yicha, kasb malakasi va tasdiqlovchi sertifikati bo'yicha farqlanadi. Ular oliy buxgalterlik malakasini olgandan so'ng mustaqil o'quv-tajriba asosida kasbiy sertifikat olishlari kerak. Ular quyidagilar:

- 1.Moliyaviy buxgalter – Certified Public Accounting, SRA.
2. Boshqaruv hisobi - Certified Management Accounting, SMA
3. Ichki audit - Certified Internal Auditor, SIA.

Ushbu tarmoqda audit ishlarini tashkil etishda asosan tashqi audit tomonidan o'tkaziladigan auditorlik tekshiruvlari ko'zda tutiladi va ushbu paragrafda tashqi auditni tashkiliy masalalarini hal etishga asosiy e'tibor beriladi. Bizningcha O'zbekistonda ham buxgalter va auditorlarni tayyorlash, kasbi, ish staji, kasbiy malaka sertifikatiga bo'lgan talabni oshirish zarur. Auditorlik firmalari tomonidan bajariladigan ish, xizmatlarni tuzilishi " bo'yicha quyidagicha taqqoslash mumkin;

Ushbu jadvalga ko'ra AQSh dagi halqaro va milliy auditorlik firmalarining asosiy faoliyati 55%-audit qilish, 20%-boshqaruv xarakteridagi maslahatlar xizmati, 20%-soliq va soliqqa tortish bo'yicha maslahatlar berishdan asosiy daromad manbai hosil bo'ladi. O'zbekistonda esa xorijiy firmalar

auditorlik faoliyatidan kelib tushadigan jami daromadning atiga 7% zini tashkil etib, uning asosiy qismi «Audit qilish», «Boshqaruv xarakteridagi maslahat xizmatlari» dan kelib tushadi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasida yirik auditorlik firmalari «katta beshlik» xizmatidan foydalanish sohasini yanada kengaytirish kerak. Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda auditorlik firmalari faoliyatini takomillashtirish va ularni xalqaro auditorlik standartlari talablari asosida tashkil etish zaruriyati kelib chiqdi.

## 9-jadval

### AQShda va O‘zbekistonda auditorlik firmalari tomonidan bajarilgan ishlar tarkibi

t/ r	Faoliyat turlari bo‘yicha	AQShdagi katta xalqaro va milliy auditorlik firmalari, %da	AQShdagi katta bo‘lmagan auditorlik firmalari %da	O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy firmalarda %da
1	Audit qilish	55	10	2
2	Boshqaruv harakteridagi maslahat xizmatlari	20	10	3
3	Soliqqa torgish bo‘yicha maslahat	10	15	
4	Soliqni hisoblash	10	25	
5	Hisob faoliyati (buyurtma bo‘yicha moliyaviy hisobotni tayyorlash)	3	20	1
6	Amaliy hisobchilmk (registr bo‘yicha va	2	25	1

	jurnallarni kiritish)			
7	hammasi:	100	100	7

Chunki O‘zbekistonda ham auditorlik firmalarini faoliyat turi, ustav kapitali, xodimlari soni, xizmat ko‘rsatish sohasi yo‘nalishlari bo‘yicha guruhlariga ajratish mumkin. Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasida Audit sohasida qabul qilinayotgan me‘yoriy hujjatlarga asosan auditning milliy standartlari va auditorlik faoliyati to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asosan auditorlik firmalarini tashkiliy ro‘yxatdan o‘tkazish, litsenziyalash va auditorlarning malaka sertifikatlarini berish tartibini takomillashtirish zarurdir.

Auditorlik nazoratida ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi qabul qilingan harakatdagi me‘yoriy, huquqiy hujjatlarga va yo‘riqnomalarga mosligi tekshiriladi. Korxonalarda maxsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni audit qilishni tashkil qilishda quyidagi ketma-ketlik asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi:

- ◆ dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va hisobotlarning rasmiyligini tekshirish.

- ◆ dastlabki hujjatlar hisob registrlari za hisobotlarni taqqoslash orqali tekshirish.

- ◆ xarajatlarni me‘yoriy va mantiqiy tekshirish.

- ◆ xarajatlarni korxonaiing iqtisodiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha taqqoslab ko‘rish.

- ◆ xarajatlarni sintetik va analitik schetlar bo‘yicha tekshirish.

- ◆ kalkulyatsiya markazlari ma‘lumotlari bo‘yicha tekshirish.

- ◆ xarajatlarni xronometrajlar bo‘yicha tekshirish o‘tkazish va b.q.

Korxonalarida xarajatlarni bunday ketma-ketlik asosida audit qilishni tashkil etish moddiy, moliyaviy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishini ta‘minlash bilan bir qatorda mahsulot tannarxini boshqarish va doimiy nazoratini ta‘minlashga olib keladi.

Oxirgi 20-30 yilda auditorlar bozor iqtisodi rivojlangan mamlakatlarda katta mavqega erishganini, AQSh va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda o'z sohasida nufuzli erkin professionallar toifasiga kiradigan buxgalterlik hisobi hamda tahlili bo'yicha mutaxassislarning nisbatan kichik va keng ommaga uncha ma'lum bo'lmagan guruxi shu yillarda ancha e'tiborli professional birlashmalarga aylandi. Turli sabablarga ko'ra bu birlashmalar iqtisodiy axborotni tartibga solish va nazorat qilish tizimida markaziy o'rinni egalladi. Bu ham o'z navbatida auditorlarni eng yuqori darajadagi birja, bozor va siyosiy sohalarga yaqinlashtiradi.



## **6-chizma. Ichki auditorlik xizmatlarining asosiy vazifalari**

Ushbu masalada O‘zbekiston Respublikasida ham ko‘pgina ishlar amalga oshirilmoqda, lekin bu ishlar etarli darajada emas. Shu sababli prof. M. To‘laxodjaeva shunday deb ta’kidlagan edi «Bizga ma’lumki, to‘liq va to‘g‘ri axborot ish faoliyatining malumotlarini keng ko‘lamda bo‘lishiga, axborotning yo‘qligi esa nazoratsizlik va tartibsizlikka olib keladi»<sup>4</sup>.

Ushbu jarayonda ichki audit xizmati muhim o‘rin egallaydi. Chunki ichki audit bevosita ishlab chiqarish jarayonida texnologik operatsiyalarni nazorat qilish harajatlarni tahlil etish va boshqaruv uchun zaruriy ma’lumot etkazib berish bilan shug‘ullanadi.

Ichki auditorlik xizmatining asosiy vazifalarini to‘g‘ri belgilash va uning o‘rnini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Shu sababli bizning fikrimizcha ichki auditorlik xizmati yuqoridagi chizma shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bizningcha auditorlik munosabatlarini o‘rganishda AQShdagi tajribalar asos bo‘lishi mumkin.

- audit o‘tkazish ob’ektlarini ajratib olish, ya’ni davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari va xususiy korxonalar ichidagi auditorlik xizmatlari;

- auditning vazifalarini ajratib olish byudjet tushumlari va xarajatlari, hisobotlardagi moliyaviy natijalar ustidan nazorat qilish, zarur hollarda mulkning saqlanishini nazorati va hokazolar;

- hududlarda xizmat qilayotgan auditorlik firmalarining ta’sir doirasini kuchaytirish.

Umuman bu fikrlar mulk munosabatlariga va shu hisob munosabatlarining o‘zgarishidan kelib chiqayotgan bozor iqtisodiyoti talablariga to‘liq javob beradi deb o‘ylaymiz.

---

<sup>4</sup> To‘laxodjaeva M.M. Korxonalar moliyaviy ahvoli auditorlik. –T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1996, 196 b.




Auditorlik tekshiruvi natijalari bo'yicha qaror ichki audit xizmati bilan auditorlik xizmati ko'rsatishga shartnoma tuzgan tegishli bo'linma rahbari tomonidan qabul kilinadi.

Shuningdek har bir auditorlik xizmati vaqtida:

- 1 Auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunga muvofiq kelishligi;
- 2 Ishlab chiqarilgan va amaliyotda qo'llanilayotgan auditning umumiy standartlariga asoslanishi;
- 3 Auditning milliy standartlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Bizning nazarimizda xorijiy rivojlangan davlatlarda qo'llanilayotgan auditning xalqaro standartlarining ayrim tamoyillarini atroflicha o'rganib chiqish va auditning milliy standartlari bilan o'zaro farqli tomonlarini ko'rib chiqishimiz mumkin. Bundan maqsad auditorlik tekshiruvining asosiy elemenglarini o'rganish imkoniyati yuzaga keladi.



**7-chizma. Auditning umumiy qabul qilingan standartlari sxemada atroflicha yoritilgan.**

Shuni qayd etish kerakki, auditorlik firmalarining ish faoliyatini yaxshilash va sifat nazorati standartlariga to'la amal qilishni ta'minlash uchun ularni toifalarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun ikkita sektsiya tashkil qilish tavsiya etiladi:

1. Qimmatli qog'ozlar va birja muomalalari bo'yicha audit sektsiyasi.
2. Kompaniyalarning audit sektsiyasi.

Bunday sektsiyalar o'z-o'zini boshqarishda va nazorat qilishda katta rol o'ynaydi. Sektsiyalarga a'zo bo'lish uchun auditorlik firmalariga albatta ma'lum talablar qo'yiladi va bunday sektsiyaga a'zo auditorlik firmalarining mavqei ham oshib boradi. Auditorlik firmalari sektsiyalar ichida bir-birini tekshirish huquqiga ega bo'ladi va faqat tekshiruvdan muvaffaqiyatli chiqqan firma sektsiya a'zolarida qolishi mumkin. Bunday tekshiruvlar firmaga ham, auditorlarga ham foydali bo'lib, ularga ishonchni oshirib boradi.

## 10-jadval

### Audit standartlarini o'zaro taqqoslash

Standart	Asosiy talablar	Namunaviy muolaja
1	2	3
Mustaqillik	Auditda qatnashayotgan har bir xodim kasbiy etika kodeksida keltirilgan mustaqillik talablariga rioya qilish kerak	Har bir auditor firmasi ishga olinayotgan audit xodimi har yili «mustaqillik anketasi» ning savollariga javob berishi kerak
Xodimlarni muayyan ishga belgilash	Auditda ishtirok etayotgan har bir xodim etarli texnik tayyorgarlik, va tajribaga ega bo'lishi kerak.	Har bir xodim bosh auditor tomonidan belgilanadi va bu ish 2 oy oldin amalga oshiriladi.
Maslahat berish	Bosh auditor va auditda qatnashayotgan xodimlar	Auditorlik firmasining direktori bilan maslahat.

Yuqorida keltirilgan muammolar bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikni turli xil shakllari mavjud bo'lgan holatda nazoratni to'g'ri tashkil qilish uchun o'z echimini topishi, keltirilgan takliflarga amal qilinishi esa bu echimni xal qilishda muhim omil bo'ladi deb o'ylaymiz.

Ushbu muammolar korxonalarda mavjud resurslardan samarali foydalanish, ularni hisobi va nazoratini bozor talablari asosida tashkil qilish o'ta dolzarb hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar amaliyotida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda o'zgaruvchan va doimiy xarajatlarga bo'lib hisobga olinadi.

Mahsulot tannarxini auditor tekshirganda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- ishlab chiqarish xarajatlarining rejasi smetasining mavjudligi;
- tasdiqlangan xarajat moddalariga rioya qilinishi;
- ishlab chiqarish xarajatlari sodir bo'lgan vaqtiga qarab operatsiya turlari bo'yicha hisobga olishga rioya qilishdan iborat bo'ladi.

Respublikamiz iqtisodchi olimlari A.Pardaev xarajatlar nazoratini yaxshilash bo'yicha quyidagi fikrni bildirganlar: «ichki xo'jalik bo'limlarida ishlab chiqarish noziri xarajatlarni zveno, bo'limlar bo'yicha hisobga olishni tekshiradi»<sup>5</sup>,

Bizningcha ishlab chiqarish jarayonini va uning texnologiya amaliyotiga rioya qilinayotganligini tekshirib borish uchun korxonalarda ishlab chiqarish noziri shtatini kiritish zaruriyati vujudga keladi. Uning asosiy vazifasiga ishlab chiqarish xarajatlarini bevosita va bilvosita usulda mahsulotlarning tannarxiga qo'shishda, buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha tasdiqlangan qoidaga muvofiq yuritishni tekshirish:

- mahsulotlar tannarxining tarkibida to'g'ri va egri xarajatlar salmog'ining reja ko'rsatkichlariga to'g'ri kelishini tekshirish;

---

<sup>5</sup> A.Pardaev «Boshqaruv hisobi» T.: O'quv qo'llanma — 2008.

-mahsulotlar tannarxini aniqlashdan oldin bajariladigan ishlarning amalga oshirilishini tekshirish;

-mahsulot tannarxini aniqlashda xarajat schetlarining tartib bilan yopilishini audit qilish;

-xarajatlarni taqsimlashdan oldin joriy va o'tgan yil xarajatlari, kelgusi yil uchun qilingan xarajatlari, ishlab chiqarish bo'limlari bo'yicha alohida hisobga olinishini to'g'riligini tekshirish. Shuningdek kerakli vaqtda dastlabki hujjat asosida tekshirish va ma'lumotlarni solishtiriladi;

-mahsulot birligining tannarxi jismoniy vaznda emas balki sof vaznda aniqlanadi;

-mahsulotni saqlash, saralash, tayyorlash va sotish bilan bog'liq xarajatlarni alohida hisobga olishni tekshirish;

-mahsulot turlarining alohida tannarxini hisobga olish usullari asosida tannarxni aniqlanishi tekshiriladi;

-mahsulot tannarxini tekshirishda davr xarajatlarining xaqiqiy summasini smeta qiymatiga tenglashtirish, umumxo'jalik xarajatlari hisobidan qoplanishi hisobini tekshirish;

-turli xil tadbirlar o'tkazish uchun sarf qilingan xarajatlar va xizmatlar mahsulot tannarxiga o'tkazilishini tekshirish;

-tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarining summasini kamaytirib ko'rsatish uchun yoki aksincha mahsulot tannarxini kamaytirish uchun tugallanmagan ishlab chiqarish hollarining bo'lishini tekshiradi;

-yaratilgan mahsulotlarning tannarxini ishlab chiqaruvchi (tsex)lar bo'yicha to'g'ri aniqlanganini tekshirish;

-mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash, ishlab chiqarishning samaradorligini ta'minlashning bog'liqligini tekshirish;

-mahsulot tannarxini oshirib ko'rsatib, soliqlardan qochish hollari bo'lmasligini tekshirish;

-tomonlar bir-biri bilan shartnomalar tuzganda ayniqsa inflyatsiyani e'tiborga olib tekshiradi.

Bizning xulosamizga ko'ra, yuqorida ko'rsatib o'tilgan moliyaviy hisobot hujjatlari barcha muhim jihatlar bo'yicha korxonaning 1 yanvariga bo'lgan moliyaviy ahvolini, shuningdek uning xo'jalik faoliyati natijalarini va hisobot yilida naqd pulning buxgalteriya hisobi umumiy qoidalariga muvofiq harakatini to'g'ri aks ettiradi.

### **3.2. Maxsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlar auditini takomillashtirish**

Mahsulot tannarxiga kiritiladigan moddiy xarajatlari va mahsulot tannarxini hisoblashni auditorlik tekshiruvi o'tkazishdan maqsad, sodir bo'lgan xo'jalik muomalalarini hisobga olish va soliqqa tortishda qo'llanilayotgan tartibning O'zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari talablariga muvofiqligini aniqlashdan iboratdir.

Ishlab chiqarish xarajatlarini audit qilishda hisobot davridagi haqiqiy xarajatlarning ishlab chiqarish xarajatlari schyotlarida o'z vaqtida va to'liq hamda ishonarli aks ettirilishi, ishlab chiqarishga sarflangan tovar-moddiy zahiralari xarajatlari ya'ni xom-ashyolar, material, yonilg'i, neft mahsulotlari, ehtiyot qismlarning baholanishining to'g'riligi, belgilangan xarajat smetalari, mehnat va ish haqi xarajatlari, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning eskirishi, boshqa bevosita xarajatlarning to'g'ri va asosli ravishda tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shilishi auditorlik tekshiruvidan o'tkaziladi.

Ishlab chiqarish xarajatlari auditini amalga oshirishda ular moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (International Accounting Standarts), auditning

xalqaro standartlari (International Auditing Standarts), O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti va auditning milliy standartlari asosida amalga oshiriladi. Ushbu tekshirishlarni amalga oshirishda albatta to‘qimachilik sanoati ishlab chiqarishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Auditor tomonidan ishlab chiqarish xarajatlari tekshirilayotganda ma’lum soha, ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqqan holda auditorlik tekshiruvi amalga oshiriladi. Masalan, auditor xarajatlarni hisobga olinishini tekshirishni boshlashdan oldin ichki nazoratning usulini test bilan aniqlashi lozim. Bizning fikrimizcha bu nafaqat ichki nazorat tizimining ishonchliligini baholash, balki auditorlik tekshiruvi o‘tkazish dasturiga tuzatish kiritishga ham imkon yaratadi.

Buning uchun biz ishlab chiqarish xarajatlarining sarflanishini tekshirish bo‘yicha ichki nazorat tizimining ahvolini aniqlash bo‘yicha test savolnomalarini tuzadi.

Ushbu keltirilgan testdan shunday xulosa qilish mumkinki, tekshiruv o‘tkazilayotgan korxonada hisobot davrida inventarizatsiya o‘tkazilmagan hisob siyosatining ayrim ob’ektlarini inventarizatsiya qilish tartibi va muddatlari belgilanmagan. Natijada, tekshiruv chog‘ida xarajat ob’ektlarini tanlab inventarizatsiya qilish zarur. Mazkur korxonada bo‘linmalarida asosiy vositalar hisobiga doir muomalalar ustidan ichki nazoratini yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi oqibatida sezilarli xatolarga yo‘l qo‘yish havfi bor.

Mahsulot tannarxi korxonaning mahsulot tayyorlash jarayonida sarflangan xom-ashyo, materiallar, ishlab chiqarish vositalari, to‘langan ish haqi, shuningdek mahsulotni ishlab chiqarish va sotish bilan bogliq bo‘lgan xizmatlar uchun to‘lov va xarajatlarning pul orqali ifodalanilishidir.

Mahsulot tannarxi umumlashtiruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, u korxonada faoliyatining hamma tomonlarini aks ettiradi va uning ish samaradorligini ko‘rsatadi.

Mahsulot tannarxi ko‘rsatkichlari: mehnat unumdorligini oshirish; texnika taraqqiyotidan unumli foydalanish; ishlab chiqarish asosiy va aylanma

fondlaridan samarali foydalanishni yaxshilash; xom-ashyo, asosiy materiallar, yoqilg'i, energiyadan tejimli foydalanish; ikkilamchi resurslar va chiqindilardan to'la foydalanish; ishlab chiqarishni boshqarish usullarini takomillashtirishni yaxshilash; boshqarishdagi xarajatlarni kamaytirish kabi sarflarni qisqartirish omillarini o'z ichiga oladi.

Mahsulot tannarxini biznes-rejalashtirishda quyidagi xarajat guruhleri ishlatiladi:

- ◆ xarajatlarning (paydo bo'lgan joylari) ishlab chiqarish tsex, uchastka va boshqalar;
- ◆ mahsulot tayyorlash va unga xizmat qilish;
- ◆ xarajatlar (modda va xarajat elementi) ko'rinishi. Har bir mahsulot tannarxini alohida aniqlash uchun xarajatlarni tsex, uchastka va korxonaga ma'muriy bo'limlariga taqsimlab rejalashtiriladi.

Shuning uchun korxonada ishlab chiqarish tarmog'ida xarajatlarni to'g'ri hisobga olish, nazorat qilish va mahsulot tannarxini to'g'ri aniqlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar ishlab chiqarish tarmog'ida xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlashda «Direkt-kosting» usulini qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu usul xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-natijalar zanjirli shaklini ifodalovchi bosh omil hisoblanadi. Buning tarkibiy qismlari doim etibor va nazoratda bo'lishi kerak.

Bu usul bo'yicha korxonalaridagi hisob va hisobot shunday tashkil etilganki, bu Nobel mukofoti laureati V.Leontevning «Xarajatlar-ishlab chiqarish hajmi-natija» nazariyasi asosida bo'lib, korxonada malumotlari ustidan muntazam nazorat qilish imkoniyati vujudga keltiradi.

Muammoni hal etish uchun biz ishlab chiqarish operatsiyalarini audit qilish bilan bir qatorda korxonalar faoliyatini mavjud qonun va qoidalarga muvofiqlashtirish, faoliyatining moliyaviy va nomoliyaviy ko'rsatkichlari

mutanosibligini audit qilishni alohida ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Tekshiruv natijalari maxfiy tarzda bo'lib, tekshirilayotgan korxonada boshqaruvchisiga, ayrim hollarda esa hissadorlarning yillik majlisiga bildiriladi. Xulosa kilib aytganda moliyaviy natijalar auditini takomillashtirishda xorijiy davlatlarning tajribalari va xalqaro standartlarga mos moliyaviy hisobot shakllarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiiq etish muhimdir.

Moliyaviy natijalarni auditini o'tkazishda tekshirish jarayonlarining ketma-ketligiga va har bir operatsiyaning me'yoriy hujjatlarga to'g'ri kelishi sinchiklab o'rganilishi kerak.

Auditor korxonada moliyaviy holatini natijalarini tekshirganda xarajat va daromadlarning soliq qonunchiligiga mos ekanligini alohida tekshirib, ular bo'yicha holisona xulosa berishi shart.

Auditor xulosalari qonuniy hujjat bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun eng ishonchli va oddiy ma'lumotlar aks ettirilishi shart. Auditor o'z kasb moharatiga ega bo'lish uchun doimiy ravishda yangi me'yoriy hujjatlar va xorijiy tajribalarni, tarmoq texnologiyasini mustahkam o'rganib borishi kerak bo'ladi.

Bizning fikrimizcha ushbu muammolarni hal etish maqsadida xarajatlar va moliyaviy natijalar quyidagi ketma-ketlik asosida audit qilinishi lozim:

-mahsulot turlari bo'yicha sotishdan olingan moliyaviy natijalar va xarajatlarning haqqoniyligini tekshirish;

-dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va hisobotlardagi ko'rsatkichlarini taqqoslash;

-xarajatlarni subschet va analitik schetlar bo'yicha tekshirish;

-xarajatlar va moliyaviy natijalarni kelib chiqish ishlab chiqarish joylari va ma'suliyat markazlari bo'yicha tekshirish.



## **Xulosa**

Moddiy xarajatlar hisobi boshqaruv hisobining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, uning hisobini buxgalteriyada to'g'ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Har bir korxonada faoliyat yurgizishdan maqsad foyda olishdir. Foydaning yuqoriligini ta'minlash uchun moddiy xarajatlarni aniq hisobga olish kerak.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida turli xil mulkchilik shakllarining tashkil topishi va korxonalarda xo'jalikni boshqarishning yangi mexanizmini yaratish zaruriyatining amaldagi holatini o'rganib chiqib, quyidagi xulosalarga keldik.

1. Buxgalteriya hisobi boshqaruv jarayoni uchun asosiy ma'lumot manbai hisoblanib, menejerlar uchun asosiy ma'lumot etkazuvchi hisoblanadi. Bizning fikrimizcha buxgalteriya hisobi ishlab chiqarishning boshqaruv tizimida faqatgina boshqaruv ob'ektlari haqida ma'lumot berish manbai bo'lib qolmasdan, balki uning holati ustidan tezkor ravishda nazorat qilish vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Shu sababli buxgalteriya hisobi xo'jalik sub'ektlari faoliyati haqidagi zaruriy, tezkor va aniq ma'lumotlarni etkazib berishi lozim.

2. Boshqaruv hisobi, asosan, korxonada boshqaruv xodimlarning tezkor axborot bilan ta'minlashi kerak. Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobi korxonada yoki firmani boshqarish, faoliyatini rivojlantirish, hisobga olish va nazorat qilish

uchun xizmat qiladi. Boshqaruv hisobining asosiy vazifalaridan biri o'z vaqtida va korxonaning ayrim bo'linmalari bo'yicha xarajatlar va olingan daromadlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni boshqaruv apparatiga etkazib berishdir. Boshqaruv hisobi kelgusida amalga oshiriladigan ishlar va faoliyatni o'zgartirish bo'yicha tegishli takliflar berishi zarur.

3. Korxonalarda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shuning uchun xom-ashyo va material sarflarini to'g'ri hisobga olish va tannarx shakllanishini boshqarish muhim ahamiyatga ega. Amalda qo'llanayotgan tannarx aniqlash usullari ayrim ishlab chiqarish jarayonlaridagi xarajatlarni to'liq aks ettirmaydi.

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini aniqlashda rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, «Direkt-kosting» va boshqa ilg'or usullaridan samarali foydalanish kerak.

Bu usullarda xarajatlarni ikkiga bo'lib, ya'ni o'zgaruvchan xarajatlar va doimiy xarajatlar shaklida hisobga olish hamda marjinal daromadni to'g'ri aniqlash, korxonaning zararsizlik nuqtasini aniqlash, kutilayotgan foyda summasini aniqlash uchun sotilishi zarur bo'lgan mahsulot sotish hajmini aniqlash hamda korxonaning umumiy xarajatlarini qoplash nuqtasini topish imkonini beradi. Ushbu usulda doimiy xarajatlar aniq buyumlar yoki buyumlar guruhi bo'yicha guruhlanadi. Ya'ni xarajat joylari bo'yicha ta'minot segmenti yoki taqsimlash yo'nalishlari bo'yicha bo'linadi.

3. Korxonalarda xarajatlar to'g'risidagi tezkor ma'lumotlarni ishlab chiqish va boshqaruv tizimiga etkazishda quyi bosqichdagi ishchilarning ish faoliyati, ish haqi, mas'ul shaxslar, xarajatlarning paydo bo'lish markazlari, javobgarlik markazlari haqidagi ma'lumotlar hisobini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa har kungi, smenadagi ma'lumotlarni umumlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bizning fikrimizcha, har bir ishchi xodim bo'yicha sarflangan xarajatlarni hisobga olish uchun maxsus ma'lumot kartochkasini yuritish kerak.

Har bir ishchi bo'yicha tayyorlangan mahsulotning sifati, standartga mos kelishi, nostandart mahsulotlarni tuzatishga ketadigan xarajatlar miqdori, tuzatish uchun sarflangan qo'shimcha xarajatlarni hisobga olish uchun «Ishchi xodimlarning aybdorligi bo'yicha ma'lumotlar» kartochkasi yuritilishi kerak, unda aybdorning ismi, familiyasi, aybdorlik sababi, aybdorlik shifri, mas'ul javobgarlik joylari bo'yicha ma'lumotlar beriladi.

4. Korxonalarda hisobot oyi davomida sodir bo'lgan xarajatlar buxgalteriya hisobida umumlashtirilib, tsex bo'yicha ishlab chiqarish hisoboti tuziladi. Ammo ushbu hisobotda materiallar, mehnat xarajatlari va boshqa bevosita xarajatlar me'yori bo'yicha va me'yordan chetga chiqishlar alohida ajratilib ko'rsatilmaydi. Natijada mahsulotlarni ishlab chiqarishda turli xil mahsulotlarga sarflanadigan moddiy, mehnat xarajatlari, ijtimoiy sug'urta ajratmalari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi xarajatlari bo'yicha me'yordan chetga chiqishlarni aniqlash imkoni bo'lmaydi.

Bizning fikrimizcha, hisobotda ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va haqiqiy moddiy va boshqa xarajatlarni mahsulot tannarxiga taqsimlashda me'yordan chetga chiqishlar har bir mahsulot turi bo'yicha alohida hisobga olinishi kerak.

Shunday qilib, mazkur bitiruv malakaviy ishida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda moddiy xarajatlarning hisobi va auditini tashkil qilishning uslubiy asoslarini rivojlantirish masalalari tadqiq etildi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.: O'zbekiston, 2013.
2. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni 1996 yil 30 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y. 26 may.
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Yangi taxriri. 2007 yil 22 noyabrda tasdiqlangan.
5. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 21.12.1995 yil tasdiqlangan, 01.04.1996 yildan kuchga kirgan.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari.**

6. O'zbekiston Respublikasi. Prezidentining «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmoni. 1995 yil 12 may, 2003 yil 4 iyuldagi o'zgartirishlar bilan.

7. O‘zbekiston Respublikasi. Prezidentining “Tadbirkorlik sub’ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2005 yil 6 oktyabr.

### **III. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarorlari.**

8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini shakllantirish tarkibi to‘g‘risida”gi Nizomi. 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 22 sentyabrdagi «Auditorlik faoliyatini takomillashtirish va auditorlik tekshirishlarning ahamiyatini oshirish to‘g‘risida»gi 365-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Mehnatga haq to‘lashning yagona tarif setkasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi 2000 yil 20 iyuldagi 280-sonli qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi.2002 yil 19 martdagi 88-sonli qarori.

### **IV. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.**

12. Karimov I.A. “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari”— T.: O‘zbekiston, 2009 yil.
13. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O‘zbekiston . 2011 yil.
14. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2012 yil.
15. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. T.: O‘zbekiston. 2013 yil.
16. I.A.Karimov. 2014 yil yuqori o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha

mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo‘ladi. T.: O‘zbekiston. 2014 yil.

#### **V. Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar.**

17. Bobojonov O. Moliyaviy hisob. Darslik. Buxgalteriya hisobining xalqaro (IAS), Amerika (GAAP) va milliy (BXMS) standartlariga asosan o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan. – T.: Moliya, 2002.-456 b.
18. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Ishonqulov N.F. “Moliyaviy va boshkaruv tahlili”. Darslik. T.; “Sharq”, 2005 y.-474 b.
19. Voytolovskiy N.V. Ekonomicheskii analiz: Osnovi teorii. Kompleksniy analiz xozyaystvennoy deyatelnosti organizatsii. Uchebnik.-M.: Visshee obrazovanie, 2006. 452 st.
20. Gadoev E. va boshq. Yillik hisobot-2008. Toshkent: NORMA, 2009.- 597b.
21. Gadaev E. i drugie. Godovoy otchet-2009. NORMA, 2010.- 368 b.
22. Gadoev E. va boshqalar. Buxgalter uchun amaliy qo‘llanma: ikki jildlik. Toshkent NORMA. 2010.
23. Djambakieva G. Finansoviy uchet. Uchebnoe posobie. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012 g. - 348 st.
24. Dontsova L.V. Analiz finansovoy otchetnosti: Uchebnik.-M.: Delo i Serviz, 2008.
25. Do‘smuratov R.D. Audit asoslari.-T.: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2003.-254 b.
26. Zavalishina I.A. Buxuchet po novomu. -T.: Mir ekonomiki i prava, 2004. 432 str.
27. Ibragimov A., Ochilov I., Qo‘ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.-444 b
28. Karimov A., Islomov F., va boshqalar. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi, 2004.-592b.

29. Makareva V.I. Analiz finansovo-xozyaystvennoy deyatelnosti organizatsii. Uchebnik.-M.: «Finansi i statistika», 2008.
30. Mamatov Z.T. Audit: muammolar va rivojlantirish istiqbollari.-T.: TMI. 2004.-348 b.
31. Mamatov Z.T., Norbekov D.E. Audit: O'quv qo'llanma.- T.: TMI, 2007.-137 b
32. Ortikov X.A. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlariga sharhlar to'plami. Toshkent, «NORMA», 2010. — 528-6
33. Ortikov X.A. va bosh Buxgalteriya hisobi bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami. Toshkent, «NORMA», 2010. — 368-6
34. Ochilov I., Qurbonboev J. Moliyaviy hisob. T.: TMI, 2004.-256 b.
35. Pardaev A.X., Pardaev B.X. Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma.-T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 252 b.
36. Pardaev M.Q., Abdulkarimov I.T. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma.-T.: «Mehnat», 2004. – 416 b.
37. Sotvoldiev A.S. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. - T.: Milliy Assotsiatsiyasi, 2004, 429 b.
38. Sotvoldiev A.S. Finansoviy i upravlencheskiy uchets. Uchebnik. T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2012 g. - 280 st.
39. Sotivoldiev A.S. Buxgalterning izohli lug'ati. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 280 b.
40. Tulaxodjaeva M.M. va boshqalar. Audit. II jild. Toshkent: NORMA, 2008 yil. 320 b.
41. Shagiyasov T.Sh., Sagdillaeva Z.A., Fayziev B.V. Finansoviy i upravlencheskiy analiz. Uchebnik.-T.: «Iqtisod-moliya», 2008. 352 s.
42. Shog'iyosov T.Sh. Kompleks iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma.-T.: «Iqtisod-moliya», 2009. – 324 b.
43. O'razov B., Vohidov V. Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobining xususiyatlari. T.: «ADIB NASHRIYOTI», 2011 y. – 494 b.

44. Qosimov X. va boshqalar. Auditorlik faoliyati bo'yicha uslubiy qo'llanmalar to'plami/. - Toshkent, 2010. - 320 b.
45. G'ulomova F.G'. Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. Toshkent: NORMA, 2010 yil. 496 b.
46. Xamdamov B.Q. Audit iqtisodi. -T.: TMI, 2005. 172 b.

#### **VI. Internet saytlari.**

<http://www.gov.uz>. (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)

<http://www.mf.uz> (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi).

<http://www.ziyonet.uz> (Axborot ta'lim tarmog'i)

<http://www.lex.uz> (O'z. Resp. qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

<http://www.bem.uz> (BEM trening tsentr)